TASVIRIY SAN'AT



O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 75(072)
KBK 85.1
V 30

Tuzuvchilar:
Noila Vaxabova, Zulayxo Xashimova

Taqrizchilar:
D. Tulanova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san’at kafedrasi dotsenti v.b.

B. Yunusova – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.

Sh. Xaydarova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 70-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi.

Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 3-sinf “Tasviriy san’at” darsligi uchun tayyorlangan ushbu metodik qo‘llanmada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar, taqvim-mavzu reja, interfaol metodlar to‘plami hamda darslarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Fan o‘qituvchilari dars jarayonida mavzuga mos interfaol metodlarni qo‘llashda, darsni samarali taqsimlashda metodik qo‘llanmadan ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Tasviriy san’at 3 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Noila Vaxabova, Zulayxo Xashimova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 112 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8070-7-5

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

M U N D A R I J A

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodologiyasi 8

1-BOB. Grafika 24

1-dars. Grafikada natyurmort va manzara janrlari. Format.....24

2-dars. Yo'lsimon naqsh chizish 28

3-dars. Nur-soya. Hilpiragan tasma tasvirini chizish.....31

4-dars. 2 – 3 xil mevalardan tuzilgan natyurmort chizish 34

5-dars. "Ko'za va sarimsoqpiyoz" mavzusida natyurmort chizish 39

7-dars. Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish 43

9-dars. Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish 48

2-BOB. Haykaltaroshlik.....52

10-dars. Haykaltaroshlik turlari 43

11-dars. Kulol ustaxonasiga sayohat.....56

12-dars. Milliy o'yinchoqlar haykalchalarini yasash 61

13-dars. Dasturxondagi noz-ne'matlar 63

14-dars. "Ur, to'qmoq!" ertagi asosida haykal ishlash.....66

3-BOB. Rangtasvir 70

17-dars. Kamalak. Asosiy va hosila ranglar. Ranglar qorishmasi.....71

20-dars. Ilıq ranglar. "Yo'lbars bolasi" rasmini ishlash 74

25-dars. Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab o'zgarishini tasvirlash 78

4-BOB. Kompozitsiya.....85

28-dars. "Koinotga parvoz" mavzusida kollaj usulida kompozitsiya ishlash.....85

29-dars. Statika va dinamika 90

30-dars. Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash.....95

31-dars. Kompozitsiyadagi ritm 100

32-dars. 4-nazorat ishi. "Hayvonot bog'i".....104

TASVIRIY SAN’AT FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

Tasviriy san’at fani o‘quvchilarning tasviriy savodxonligini rivojlantirishga, badiiy-estetik did va emotsional sezgirligini o‘stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bilimlarni egallashlariga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at o‘quv fani umumiy o‘rta ta’lim fanlari ichida ma’naviy sog‘lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega. Tasviriy san’at darslarida san’at va san’atkor olami, san’atning ijtimoiy vazifasi va o‘ziga xos xususiyati, uning tasviriy-ifodaviy vositalarini o‘rganib borish orqali o‘quvchilar atrof-muhit, tasviriy, amaliy san’at va me’morchilikdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, qadrlash va muhofaza qilishni o‘rganib boradilar. Tasviriy san’at fani o‘quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

MILLIY O‘QUV DASTURINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA JORIY ETISH

O‘qitish va tarbiyalashda milliy yuksalish prinsiplari va Mustaqillik davri yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini bosqichma-bosqich joriy etish o‘quvchining shaxsiga, unda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil rivojlanishga o‘rgatish, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishni nazarda tutadi.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3-SINF O‘QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN’AT FANIDAN QO‘YILADIGAN TALABLAR

1	**Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**
1.1	O‘zbek xalq amaliy san’ati turlarini solishtiradi va badiiy tahlil qiladi
1.2	Kulolchilik ishlarini badiiy tahlil qiladi
1.3	Naqsh kompozitsiyasi uchun rang tanlashga ijodiy yondashadi
1.4	Plastilin bilan ishlaganda ish joyini to‘g‘ri tashkil qiladi
2	**O‘z-o‘zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**
2.1	Turli ish jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi
2.2	Ranglar bilan ishlash jarayonida tozalikka rioya qiladi
2.3	Yordamchi chiziqlar bilan naqsh va tasvir ishlash jarayonida sanitariya-gigiyena talablariga rioya qiladi
3	**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**
3.1	Yil fasllari va boshqa tasvirlarni to‘g‘ri ifodalovchi ranglardan foydalanadi
3.2	Asosiy va hosila ranglarni solishtiradi
3.3	Mavzuga oid naqsh va boshqa tasvir kompozitsiyasini ishlaydi
3.4	Natyurmort janriga oid atamalarni qo‘llaydi
3.5	2–3 ta mevadan tuzilgan natyurmortni tasvirlay oladi
3.6	Iliq va sovuq, xromatik va axromatik ranglardan foydalanib tasvir ishlaydi
3.7	Mavzuga oid relyefli va bo‘rtma haykal ishlaydi
3.8	Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiyalarda rasm ishlay oladi
3.9	Statika va dinamika mavzusida rasm ishlay oladi

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o‘rinni egallaydi.

1–4-sinflarda bo‘yoq bilan ishlash mashg‘ulotlarida ranglarning turli tus va och-to‘qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o‘rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko‘proq guash, akvarel bo‘yog‘i va ularning aralashmalaridan foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotlarda tasvirni qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish, buyum va narsaning fazoviy holati, shaklini topa bilish, ularning o‘zaro nisbatlarini aniqlay olish va aniq chiza bilish talab etiladi.

TASVIRIY SAN'AT
(3-SINF)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Taqvimiy muddat
	1-chorak		
1-dars	Grafikada natyurmort va manzara janrlari. Format	1	
2-dars	Yo‘lsimon naqsh chizish	1	
3-dars	Nur-soya. Hilpiragan tasma tasvirini chizish	1	
4-dars	2–3 xil mevadan tuzilgan natyurmort chizish		
5-dars	“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusida natyurmort chizish	1	
6-dars	“Tandirnon” mavzusida natyurmort chizish	1	
7-dars	Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish	1	
8-dars	**1-nazorat ishi.** “Piyoz” tasvirini chizish	1	
9-dars	Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish	1	
	2-chorak		
10-dars	Haykaltaroshlik turlari	1	
11-dars	Kulol ustaxonasiga sayohat	1	
12-dars	Milliy o‘yinchoqlar haykalchalarini yasash	1	
13-dars	Dasturxondagi noz-ne’matlar	1	
14-dars	“Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida haykal ishlash	1	
15-dars	**2-nazorat ishi.** “Ertak qahramonlari yangi yil archasi atrofida” mavzusida haykal ishlash	1	
16-dars	“Shimoliy qutb ayiqchasi” mavzusida haykal ishlash	1	
	3-chorak		
17-dars	Kamalak. Asosiy va hosila ranglar. Ranglar qorishmasi	1	
18-dars	Axromatik ranglar. “Quyoncha” rasmini ishlash	1	
19-dars	Xromatik ranglar. “Baliqcha” rasmini ishlash	1	
20-dars	Sovuq ranglar. “Oqqush” rasmini ishlash	1	
21-dars	Iliq ranglar. “Yo‘lbars bolasi” rasmini ishlash	1	
22-dars	“Musicha” rasmini ishlash	1	
23-dars	Dekorativ qush. “Tovus” rasmini ishlash	1	
24-dars	**3-nazorat ishi.** “Tabiat dunyosi” mavzusida rasm ishlash	1	

25-dars	Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab o‘zgarishini tasvirlash	1	
26-dars	Rang va kayfiyat. “Navro‘z bayrami” mavzusida rasm ishlash		
4-chorak			
27-dars	“Tog‘da bahor” mavzusida fazoviy kompozitsiya ishlash	1	
28-dars	“Koinotga parvoz” mavzusida kollaj usulida kompozitsiya ishlash	1	
29-dars	Statika (turg‘unlik) va dinamika (harakat)	1	
30-dars	Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash	1	
31-dars	Kompozitsiyadagi ritm	1	
32-dars	**4-nazorat ishi.** “Hayvonot bog‘i” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
33-dars	“Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasini ishlash	1	
34-dars	“Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasining shriftini ishlash	1	
	UMUMIY	**34**	

TASVIRIY SAN’AT KURSINI MAVZUIY REJALASHTIRISH (3-SINF)

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	Grafika	9	1	8
2	Haykaltaroshlik	7	1	6
3	Rangtasvir	10	1	9
4	Kompozitsiya	8	1	7
Jami:		**34**	**4**	**30**



TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODOLOGIYASI

Odamlardan faol harakat, mustaqil qaror qabul qilish, hayotning o'zgarayotgan sharoitlariga moslashish talab qilinayotgan hozirgi davrda ta'lim metodologiyasi zamonga mos bo'lishi lozim.

"Metodologiya" yunonchadan olingan bo'lib, metodlar nazariyasi, mavzuni tadqiq qilish metodlari, metodlar va strategiyalarni o'rganadi, tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etadi.

Pedagogika metodologiyasi bu – pedagogik bilimlar va uni ishlab chiqarish jarayoni haqidagi ma'lumot.

Pedagogik metodologiya o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga, muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishga yo'naltiradi, xatti-harakat natijalarini tahlil qilishga, voqelikka to'g'ri yondashishga o'rgatadi, o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, motivatsiya yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, pedagogik bilimlarning tarkibi va funksiyalari, pedagogik masalalari, metodologik ahamiyatga ega bo'lgan boshlang'ich, asosiy, fundamental, falsafiy, umumiy-ilmiy va pedagogik qoidalarni tushuntiradi.


Pedagogik metodologiya pedagogik nazariyaning boshlang'ich nuqtalari, pedagogik hodisalarni ko'rib chiqishda yondashuv tamoyillari va ularni tatbiq qilish usullari, shuningdek, olingan bilimlar tizimidir. Texnologiya va metodlar metodologiyaning asosidir. Texnologiya va metodlar qo'llashda afzalligi, qulayligi, manfaatliligi, ko'ra bilishning osonligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Manbalarda yozilishicha: "Ezgulikka erishish ikki shartning bajarilishi – har qanday faoliyat yakunidagi maqsadni to'g'ri belgilash va maqsadga erishish chora-tadbirlarni izlab topishga bog'liqdir". Demak, metodologiyani amalga oshirishda metodlarga asoslanilar ekan, faoliyatning metodologik asosini aniqlash va maqsadga erishish metod va uslublarni to'g'ri belgilash muhim.

O'quv jarayonida qo'llanadigan texnologiyalar metodlardan farq qiladi: "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi", "O'qitishni individuallashtirish ta'lim texnologiyasi", "Modellashtirish ta'lim texnologiyasi", "Hamkorlik ta'lim texnologiyasi", "Muammoli ta'lim texnologiyasi", "Evristik ta'lim texnologiyasi", "Raqamli ta'lim texnologiyasi" kabi.

O'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan), ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli), kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan) turkumlanishi asosida innovatsiyalar quyidagicha tasniflanadi.

Interfaol metodlar:



Texnologiya – kerakli natijaga erishish uchun metod va vositalar to‘plami.

Pedagogik texnologiya – muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan,aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni.

O‘qitish texnologiyasi – o‘quv mashg‘ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o‘qituvchi va o‘quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Ta’lim metodlari deyilganda o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari yig‘indisi tushuniladi.

Ta’lim metodi – o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Interfaol metod – o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari majmui.

Metodika – qat’iy ketma-ketlikka, ilgari o‘rnatilgan reja, tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror-bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini ifoda etadi.

Metodologiya – insonlarning yashashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasi.

Ta’limga joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadlaridan biri innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimini yaratishdir. Milliy o‘quv dasturining mazmuni esa yosh avloddagi tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya’ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya va metodlarning natijasi uni qo‘llayotgan o‘qituvchining bilimi, ijodiy va kasbiy mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ta’lim muhiti va mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda to‘g‘ri tushunilgan, tanlangan va qo‘llanganda ko‘zlangan pedagogik maqsadga erishilishi o‘zaro uzviydir. Buning uchun har bir o‘qituvchi avvalo darsini maqsadli tashkil qilishi lozim.

DARS MAQSADLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Aniqlik – dars so‘ngida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan yangi bilimlar, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, rivojlanishini belgilaydi.

Reallik – real imkoniyatlar: o‘quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, sinfdagi o‘quvchilar soni, darsning jihozlanishi, texnik ta’minotga bog‘liq vaziyat.

Diagnostika – maqsadga erishish mumkin bo‘lgan mezonlar.

Darsni maqsadli to‘g‘ri tashkil etish

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda darsni qismlarga ajratib, har bir qismni daqiqalarga taqsimlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki amaliy fanlarni o‘qitishda darsning “Amaliy mashg‘ulot” qismi o‘quvchilarning bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Puxta reja – samarali natijadir. Reja asosida qismlarga ajratib tashkil qilingan darslar qiziqarli va tartibli bo‘ladi. Darsning har bir qismida o‘quvchilar nazariy, amaliy-metodik jihatdan o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini mustahkamlab boradilar. Eng muhimi, o‘qituvchi va o‘quvchilar 45 daqiqalik vaqtdan samarali foydalanadilar.

№	Dars qismlari	Ajratilgan vaqt
	Tashkiliy qism	3 daqiqa
	Avvalgi mavzuni mustahkamlash	3 daqiqa
	Yangi mavzu bayoni	8 daqiqa
	Amaliy mashg‘ulot	22 daqiqa
	Yangi mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
	Darsni yakunlash va uyga vazifa berish	5 daqiqa

INTERFAOL METODLAR

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqtda muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’i nazar, texnologiyalar:

– pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;

– o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

– o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;

– o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;

– o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

– pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

“FIKRIY HUJUM” METODI

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foyda-

lanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 10–15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.



“AQLIY HUJUM” METODI

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llanadigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni tanlash imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

– o‘quvchilar o‘zlarini erkin his etishi uchun sharoit yaratib berish;

– g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;

– muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

– mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

– bildirilayotgan g‘oyalarning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;

– qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

– bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

– boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oya (yoki fikr)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– yangi g‘oyalar bildirilayotgan ekan, muammoning yagona yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek:

– o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;

– o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

– g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

– o‘quvchilarning boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.





Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholab borilsa, o‘quvchilar diqqatini shaxsiy fikrini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.



“KLASTER” METODI

“Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘o-

yalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguncha davom ettiring.

3. Yozuvingizning imlosi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.



TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA STEAM VA STEM

Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o‘qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda **kreativlik**ni rivojlantirish, **STEAM** (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika (science, technology, engineering, art and mathematics)) **yondashuvi asosida fanlarning integratsiyasini kuchaytirish,** har bir o‘quvchini ijodkorga aylantirishga, turli manbalar (adabiyotlar, tajribalar va h.k) yordamida mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratish hamda bilim olishga qiziqtirishidir.

Masalan, “Tabiatdagi daraxtlarning yil fallariga qarab o‘zgarishini tasvirlash” mavzusini tushuntirish jarayonida sinf o‘quvchilari **STEAM** yo‘nalishlari bo‘yicha 5 ta guruhga bo‘linadi:

S (fan) – tabiatning yil fasllari davomida o‘zgarish sababini yoritib beradi.

T (texnologiya) – yil fasllari davomida daraxtlarning ko‘rinishini mozaika usulida tasvirlaydi.

E (muhandislik) – daraxtlarning yil fasllari davridagi ko‘rinishi eskizlarini ishlaydi.

A (san’at) – muhandislar guruhi taqdim qilgan eskizlarga rang beradi.

M (matematika) – mozaika va eskiz ishlash jarayonida o‘lchash ishlarini bajaradilar.









STEM – o‘qitishning yangi metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o‘zida to‘rtta – fan (science), texnologiya (technology), muhandislik (engineering) va matematika (math) bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan. Bunda amaliy va ko‘ngilochar mashg‘ulotlar yordamida saboq beriladi.

STEM fanlar bo‘yicha emas, balki “mavzu”lar bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir.

STEM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash o‘rgatiladi. Har bir darsda zamonaviy mashg‘ulotlar yordamida amaliy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Ko‘p yillar davomida o‘quvchilar fan, texnologiya, muhandislik va matematikani maktabda to‘rtta alohida fan sifatida o‘rganishgan. Biroq **STEM**da ushbu to‘rt yo‘nalish o‘rtasidagi aloqalarga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Agar hayotiy misollarda ko‘rib chiqsak, fan-texnologiya yutuqlari muhandislik va matematikaga tayanadi. Xuddi shunday, muhandislik yo‘nalishidagi ilmiy kashfiyotlarda matematikani qo‘llash va texnologiyalardan unumli foydalanish muhim.

TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV

Tasviriy san’at fani o‘qituvchilarining asosiy vazifasi o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Kreativlik (ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Kreativlik – o‘quvchining yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya,

natijalarni oldindan ko‘ra bilish, tasavvur, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda:

– o‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– o‘quvchilar ijodiy fikrlashi uchun qulay imkoniyat yaratish, ular bayon qilgan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini o‘quvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– o‘quvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undashdan iborat.



“CSMART” metodi

C – Challenging (yetarli darajada murakkablik**)**

S – Specific (konkretlik)

M – Measvrable (o‘lchanish mumkinligi)

A – Achievable (erishish imkoniyati)

R – Relevant (dolzarblik)

T – Time-bound (muddatlar bo‘yicha aniqlik)

AMALIY KO‘NIKMA VA MALAKALARNING RIVOJLANISHIDA FANLARARO HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda 3 ta bosqich muhim hisoblanadi:

Birinchi bosqich – idrok etish. Idrok etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir.

Ikkinchi bosqich – o‘quv materialini anglab yetish. U ma’lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. O‘zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish va bilimlarni amaliyotda qo‘llashdan iborat. Bu borada integratsiya darslari samarali natija beradi.

STEAM ASOSIDA “APPLIKATSIYA” TEXNIKASINI QO‘LLASH

3-sinf yangi avlod darsligidagi mavzularni STEAM dasturi asosida yoritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amaliy ish jarayonida esa sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan shakllar tarqatiladi. O‘quvchilar geometrik shakllar asosida applikatsiya texnikasini qo‘llagan holda berilgan tasvirni yasaydilar. Yasash asosida berilgan mavzuni konstruktiv tahlil qilib oladilar va tasvirni qiynalmay chiza oladilar.

Masalan, natyurmort ishlash jarayonida o‘quvchilar ko‘za tasvirini chizishga biroz qiynaladilar. Bu borada STEAM dasturi yo‘nalishida ishlash samarali natijani beradi.





“NAMOYISH QILISH” METODI

Bu metodda ta’lim sifatini oshirish uchun o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

O‘qituvchi dars jarayonida faqat mavzuga va o‘quvchilar o‘rgangan materialga mos keladigan video qismlarni olishi kerak.

Videodars darsning bir bo‘lagi bo‘lishiga qaramasdan, o‘quvchini idrok qilishga o‘rgatadi va o‘rganganlaridan amalda foydalanish istagini paydo etadi, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni kuchaytiradi va olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish layoqatini egallashga yordam beradi.

Masalan, o‘qituvchi “Tasviriy san’atning turlari” mavzusini tushuntirish jarayonida videoroliklardan foydalansa, o‘quvchi mavzuni tez va oson qabul qiladi, o‘rganganlari uzoq vaqt xotirasida qoladi.



“VIDEOTOPISHMOQ” METODI

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Videotopishmoq metodida o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlaydilar va jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar, o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar. Tasviriy san’at darslarida videotopishmoq metodini qo‘llash samarali natija beradi.


Masalan, o‘qituvchi natyurmort, manzara va boshqa janrlarni ishlash jarayoni videosini ko‘rsatadi va o‘quvchilardan bu jarayonlar tasviriy san’atning qaysi janriga mansub ekanini so‘raydi.



“PLENER AMALIYOTI” METODI

“Plener amaliyoti” metodi bu – tabiat qo‘ynida manzaraga qarab rasm ishlash.

Bu metod fasllarga oid mavzularda qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir. Bu mavzularni o‘tish samaradorligi, shubhasiz, o‘quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarining teranligi bilan bog‘liq. Tabiat insonlar uchun go‘zallik va quvonch manbai bo‘lib kelgan. Sinf xonasidagi darsga nisbatan bolalarni sayohatga olib chiqish ularning kayfiyatlariga, his-tuyg‘ulariga va ijodiy ishlashlariga ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli ham yuqoridagi mavzular bo‘yicha dars o‘tishda uni sayohat usulida o‘tkazishni aniq tartibda rejalashtirib olish lozim. Albatta, sayohat davomida o‘rganiladigan ma’lumotlar 45 daqiqaga mo‘ljallab tuziladi.



“XATOGA YO‘L QO‘YING” METODI

Bunda dars jarayonida o‘qituvchi qasddan xato qiladi. O‘quvchilar bu haqda oldindan ogohlantirilgan bo‘ladi. Bundan ko‘zlangan maqsad bolalarni ogohlantirishga o‘rgatish. Xatolar ushbu metodning maqsadi emas, ushbu usul xatoni tushunish yoki mexanik ravishda to‘g‘ri javobni eslab qolish va noqulay vaziyatlardan chiqib ketishga asoslangan.

Masalan, o‘qituvchi yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida mavzuga oid bo‘lmagan atama yoki so‘zni qo‘shib qo‘yadi. O‘quvchilar bu xatoni topishlari lozim bo‘ladi.



“HA-YO‘Q” METODI

Bu metod oddiy bo‘lgani bilan, o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. Aslida “Ha-yo‘q” metodi keng qamrovli bo‘lib, mavzuning turli belgilarini farqlash, aniqlangan xususiyatlariga ko‘ra narsalarni guruhlash, maqsadga va o‘ziga xos vaziyatga qarab tasniflash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu nomutanosib faktlarni yagona fikrga bog‘lash, tizimlashtirish qobiliyatini shakllantiradi.

Masalan, 3-sinfda “Yomg‘ir yog‘moqda” mavzusini mustahkamlash jarayonida o‘quvchilarga quyidagi ma’lumotlardan iborat tarqatma material beriladi:

– Kuz faslini bo‘yashda iliq ranglardan foydalaniladi. _____

– Kuzda tabiat oltin tusga kiradi. _____

– Yomg‘ir faqat kuz faslida yog‘adi. _____

– Yomg‘ir yog‘ganda soyabon tutish shart emas. _____

– Yomg‘ir yog‘ayotganda quyosh berkinadi. _____





“BREYNRAYTING” METODI

Bu metodni qo‘llashda barcha g‘oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o‘z fikr va g‘oyalarini og‘zaki bayon etishga qiynaladigan ba’zi o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi. O‘quvchilar tomonidan yozilgan fikr va g‘oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e’tibor qaratilmaydi hamda fikrlar orasida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo‘sh joylar ham qoldiriladi. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G‘oyalar tahlili keyinroq o‘tkaziladi. Bu metoddan foydalanganda muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

Masalan, “Tabiatni asrang” mavzusidagi plakat kompozitsiyasini ishlash” mavzusida o‘quvchilar tabiatni asrash yuzasidan o‘z g‘oyalarini yozma bayon qilishlari mumkin. Bu metoddan o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.





“ZAKOVATLI ZUKKO” METODI

Bu metodda mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatiga egaligi muhim. Bu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezligini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Har bir savolga berilgan to‘g‘ri javob uchun savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra tegishli ballar belgilanadi.

“INTERVYU” METODI

Bu metoddan o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda guruh vakillari chiqib, bir-birlari bilan tanishib oladilar. (Masalan: men “Dunyo bo‘ylab” kanali muxbiri (familiya, ismi)man.)

So‘ngra guruh vakillari bir-biriga o‘tilgan mavzu yuzasidan qiziqarli savollar berishadi. Bu metod ishtirokchiga dadillik hissini beradi, og‘zaki nutqi rivojlanadi. Ishtirokchilar bir-birining fikrini qo‘llashi, tanqidiy munosabatda bo‘lishi va fikrini asosli faktlar bilan himoya qilishi nazorat qilib turiladi. Tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zini baholashni ham o‘z ichiga oladi.



“CHARXPALAK” INNOVATSION TEXNOLOGIYASI ASOSIDA “TRAFARET” TEXNIKASINI QO‘LLASH

Bu metodda ta’lim sifatini oshirish maqsadida o‘quvchilarga yordam bo‘lishi uchun mavzuga oid andoza beriladi. O‘quvchilar andoza orqali naqsh kompozitsiyasini ishlaydilar.

Bu metodda sinf o‘quvchilari kichik gu-

ruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga mavzu yuzasidan ijodiy vazifa beriladi.

Masalan, bu metodni 3-sinf yangi avlod darsligiga kiritilgan “Yo‘lsimon naqsh ishlash” mavzusida qo‘llash mumkin. Guruhlarga turli buyumlar tarqatiladi (ko‘za, sopol lagan, quticha va h.k). O‘quvchilarga yordam tariqasida mavzuga oid andoza beriladi. O‘quvchilar andoza orqali naqsh kompozitsiyasini ishlaydilar. Guruh ishlari ma’lum vaqt ichida charxpalak sxemasi asosida tez-tez almashinib turadi. Natijada guruh o‘quvchilari bir-birini takrorlamagan holda naqsh kompozitsiyasini yaratadilar.

“KOLLAJ” TEXNIKASI

O‘qituvchi sinf doskasiga vatman qo‘yadi. Guruhlarga yangi mavzu yuzasidan vazifalar, ya’ni kompozitsiya elementlarini bajarish ishi beriladi. Guruhlar bajargan tayyor ishlarini vatmanga yopishtiradilar. Shu tariqa yangi mavzu yuzasidan umumiy kompozitsiya ishlanadi.

Bu texnikani 3-sinf yangi avlod darsligiga kiritilgan “Koinotga parvoz”, “Tog‘da bahor”, “Tabiatni asrang” mavzularida qo‘llash mumkin.



“SINKVEYN” METODI

Bu metodda har qanday material bir nechta iboralar bilan qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltiriladi. “Sinkveyn” fransuzcha so‘z bo‘lib, “besh” degan ma’noni bildiradi. Bu metoddan o‘quvchilarni qatorlar yoki guruhlarga bo‘lib foydalanish mumkin. Har bir qator yoki guruhga yozilgan so‘zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma’noni o‘zida qamrab oladi.

1-qator (guruh) – bitta so‘zdan iborat mavzu (predmet) nomi.

2-qator (guruh) – berilgan mavzu (predmet)ning sifatlari (2 ta so‘z).

3-qator (guruh) – berilgan mavzu (predmet)ning odatiy harakatlari haqida (3 ta so‘z).

4-qator (guruh) – ibora (mavzu haqida o‘quvchining fikri) (4 ta so‘z).

5-qator (guruh) – berilgan mavzu (predmet)ning sinonimi.

Masalan, “Shimoliy qutb ayiqchasi” haykalini ishlash” mavzusiga:

1-qator (guruh) – Shimoliy qutb ayiqchasi.

2-qator (guruh) – baliqxo‘r hayvon.

3-qator (guruh) – quruqlikda yashaydi.

4-qator (guruh) – tabiatda uning o‘z o‘rni bor.

5-qator (guruh) – beozor.





“LOYIHA” METODI

Bu metodga o‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida birorta mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishi asos hisoblanadi. Bu metodda o‘quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish, natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyihani ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh holda bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha guruhning birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bunday topshiriqlar mustaqil reja tuzishni amalga oshirishda yaxshi samara beradi. Loyihaviy topshiriqlarni bajarish uchun o‘qituvchidan ko‘rsatish, tushuntirish, izohlash talab etilsa, o‘quvchilarga asoslar, dalillar, materiallar to‘plash, o‘z loyihalarini ishlab chiqish topshiriladi.


Masalan, “Haykaltaroshlik” bobidagi “Kulol ustaxonasiga sayohat” mavzusini o‘tish jarayonida sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga kulolchilikka oid barcha ish qurollarini o‘z loyihalarida ko‘rsatib berish topshiriladi.




“MODELLASHTIRISH” TEXNOLOGIYASI

“Modellashtirish” texnologiyasi loyihalashga yaqin tursa-da, tub mohiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Biror o’byektni modellashtirish deganda uning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar yoki mantiqiy ifodalar orqali ifodalash tushuniladi. Modellashtirish texnologiyasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nizomlar, ta’riflar, modellarni yaratish va tadqiq etish usullari, vositalari to‘plamini tashkil etadi. Modellashtirish tadqiqotchilik modellarini yaratish va o‘rganishdan iborat.

Masalan, “Statika (turg‘unlik) va dinamika (harakat)” mavzusida raketa va kosmonavtni geometrik shakllar yordamida modellashtirish maqsadga muvofiqdir.





“KONFRONTO” METODI


“Confronto” italyancha so‘z bo‘lib, taqqoslash degan ma’noni bildiradi. Bu metodda o‘quvchi borliqdagi narsa-buyumlarni kuzatadi va ularni nimaga taqqoslash mumkinligini aytib beradi. Ko‘pincha geometrik shakllarga taqqoslash asosida tasvirni chizishni yengillashtirish mumkin. Odatda geometrik shakllar va turli chiziqlar tasvirning xomaki nusxasini chizib olish uchun qulaylik yaratadi.


1-BOB. GRAFIKA

1-DARS


Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Grafikada natyurmort va manzara janrlari. Format**
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarga grafikada natyurmort va manzara janri haqida ma'lumot berish va ularda mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish. Shuningdek, o'quvchilarga format haqida ma'lumot berish
	Tarbiyaviy	O'quvchilarning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini o'stirish, ularni ish joylarini to'g'ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o'rgatish
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarning tasviriy san'atning grafika turi haqidagi bilimlarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi	**C –** o'quvchi tasviriy san'at turlarini ajrata oladi. **S –** o'quvchi manzara, natyurmort janrini to'g'ri tasvirlay oladi. **M –** o'quvchi manzara chizish jarayonida perspektiva qoidalariga rioya qiladi. Natyurmort ishlash jarayonida o'zaro nisbat o'lchamlariga rioya qiladi. **A –** o'quvchi manzara, natyurmort chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to'g'ri tasvirlay oladi. **R –** o'quvchi grafikada manzara, natyurmortni bo'yash jarayonida element shakliga mos shtrix yo'nalishlarini to'g'ri bera oladi. **T –** o'quvchi shtrixlash jarayonida yorug'-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	Suhbat, tushuntirish, klaster, muammoli vaziyat, "Konfronto" (taqqoslash metodi), taqdimot
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, mum va rangli qalamlar, o'chirg'ich
	Sinf doskasining bezagi	*Tasviriy san'atning manzara va natyurmort (grafikada) yo'nalishidagi asarlardan namunalar*
		

		
	Atamalar	Perspektiva, simmetriya, nisbat, shtrix, yorug‘-soya
DARSNING BORISHI		
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning ta’til davomida bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Qadrli o‘quvchilar! Siz 2-sinfda tasviriy san’at fanida “Grafika”, “Haykaltaroshlik”, “Rangtasvir” va “Kompozitsiya” mavzulari bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘rgandingiz. Grafik tasvirlar ishlash, loy va plastilindan hajmli bo‘rtma va dumaloq haykallar yasash, chizilgan tasvirlarga rang berish, mavzu asosida kompozitsiya tuzish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egalladingiz. 3-sinfda ham boblar ketma-ketligida qiziqarli mavzularni o‘rganish bilan birga rasm chizish va haykal ishlash, ijodiy kompozitsiyalar tuzish bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni hosil qilasiz.

	Yangi mavzu bayoni	**Grafika** yunonchadan olingan bo‘lib, “chizaman, yozaman” degan ma’nolarni anglatadi. Grafikada tasvirlar qalam, ko‘mir, sangina, tush, flomaster, bo‘r va shu kabilar yordamida chiziladi. **Grafika** – tasviriy san’at turi. Grafikada tasvir asosan oq-qora, shuningdek, rangli ishlanadi. **“Klaster” metodi**  Tasviriy san’at janrlari va format haqida ma’lumot beriladi: **Natyurmort** (fransuzcha “nature morte“ – “jonsiz tabiat” degan ma’noni anglatadi. Natyurmortda buyumlar, meva va sabzavotlar, gullar, gipsdan tayyorlangan turli predmetlar o‘ziga qarab tasvirlanadi. Natyurmort chizishda o‘ziga xos qoidalar mavjud va ularga amal qilish zarur. **Manzara** janrida tog‘lar, o‘rmonlar, dalalar, anhor, ko‘l, daryolar, ko‘cha va uylar tasvirlanadi. Rassomlar bu janr orqali tabiatga, Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini tasvirlaydilar. Tabiat manzaralarini tasvirlash qadimgi Xitoy rassomlik san’atida paydo bo‘lgan. Bu janr ham tasvirni o‘ziga xos qoidalarga tayangan holda chizishni talab etadi. **Format** – ishlanadigan tasvir maydonining chegarasi. Eng keng tarqalgan tasvir formatlari to‘rtburchaklar (vertikal, gorizontal), kvadratlardir. To‘rtburchak formatdagi tasvirlar yuqoriga intilib, ulug‘vorlik tuyg‘usini beradi. Gorizontal formatlar esa murakkab, ko‘p o‘lchovli kompozitsiyalar uchun qulaydir. Kvadrat formatlar statik kompozitsiyalar ishlash uchun mo‘ljallangan.

<table>
<tr><td rowspan="5"></td><td>Amaliy ish</td><td>Manzara ishlash qoidalari “Namoyish” metodi orqali tushuntiriladi.
1. Ufq chizig‘i.
2. Tasvirning bosh nuqtasi.
3. Bosh ko‘rinish masofasi.
4. Oraliq masofadagi nuqtalar.
 
Noto‘g‘ri

Komponovka lotincha so‘z bo‘lib, “qurish, joylashtirish” degan ma’noni bildiradi.
To‘g‘ri




Noto‘g‘ri

To‘g‘ri
Natyurmortni ishlash qoidalari tushuntiriladi, o‘zaro nisbat o‘lchamlari haqida ma’lumot beriladi. Grafikada shtrixlash qoidalari tushuntiriladi.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Atamalar bahsi” metodi</td><td>Komponovka, perspektiva, nisbat, format, shtrix
O‘quvchilar berilgan atamalarni manzara va natyurmort janriga oid ustunga yozib, to‘ldiradilar.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Ixtiyoriy formatda manzara yoki natyurmort janrida rasm chizing.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
<tr><td colspan="3">Yakuniy qism</td></tr>
</table>

2-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Yo‘lsimon naqsh chizish**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga O‘zbekiston xalq amaliy san’ati haqida ma’lumot berish va yo‘lsimon naqsh ishlash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, amaliy bezak san’ati namunalarini o‘qishga o‘rgatish, amaliy san’at namunalari orqali o‘quvchilarning xalq ustalariga nisbatan hurmatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarni amaliy san’at namunalarini idrok etishga o‘rgatish, ularning o‘zbek xalq amaliy san’atiga nisbatan hurmatlarini oshirish. O‘quvchilarning naqqoshlik san’atiga qiziqishlarini o‘stirish.
	CSMART maqsadi	**C –** o‘quvchi amaliy bezak san’ati turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi yo‘lsimon naqsh shaklini to‘g‘ri chizib, uni qismlarga ajrata oladi. **M –** o‘quvchi naqsh elementlarini kompozitsiya va ritm qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A –** o‘quvchi naqsh ishlash jarayonida novda va elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R –** o‘quvchi naqshni bo‘yash jarayonida ranglardan to‘g‘ri foydalanadi. **T –** o‘quvchi naqshga tarh bezagini bera oladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	Suhbat, tushuntirish, klaster, muammoli vaziyat, konfronto, taqdimot
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, mum va rangli qalamlar, o‘chirg‘ich


	Sinf doskasining bezagi		*Naqsh namunalari*	
	Atamalar	Perspektiva, simmetriya, nisbat, shtrix, yorug‘-soya		
DARSNING BORISHI				
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Ixtiyoriy formatda manzara yoki natyurmort janrida rasm chizing.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars “Qaysi janrga oid?” metodi orqali mustahkamlanadi.   		



	Yangi mavzu bayoni	Har bir millatning o‘z amaliy san’ati bor. Xalq amaliy san’ati deganda ajdodlarimiz asrlar davomida yaratib kelgan hamda ustalarimiz tomonidan bugun ham yaratilayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari va amaliy san’at asarlarini tushunamiz. **Naqsh** arabcha so‘z bo‘lib, “gul” degan ma’noni anglatadi. **Naqsh** amaliy bezak san’atining eng ommalashgan turlaridan biridir. Qadimda insonlar tabiatdagi go‘zalliklarni ko‘rib, bu go‘zallikni uylarining devorlariga, ro‘zg‘or buyumlariga chiza boshlaganlar. **“Klaster” metodi** 
	Amaliy ish	**Yo‘lsimon naqsh chizish usullari tushuntiriladi.** Yo‘lsimon naqsh bir necha qismlardan tashkil topadi. Bular gul, barg, novda, meva elementlari hamda yo‘l ichidagi sxema yordamchi chiziqlaridan iborat. Yo‘lsimon naqsh chizishda oq qog‘ozga yo‘l chizilgandan keyin uni yordamchi chiziqlar bilan teng bo‘laklarga bo‘linadi. Sxema yordamchi chiziqlari chiziladi. Yordamchi chiziqlarga elementlar ritm asosida joylashtiriladi. 


Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Atamalar bahsi” metodi	Mavzuga oid atamalarga izoh beriladi: yordamchi chiziqlar, simmetriya, sxema, ritm.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Yo‘lsimon naqshni tugallang va rangli qalamlar bilan bo‘yang.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

3-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Nur-soya. Hilpiragan tasma tasvirini chizish**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga grafikada ishlash usullarini o‘rgatish, ularni nur-soya qoidasi bilan tanishtirish va ularda mavzu bo‘yicha tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasviriy san’atning grafika turi haqidagi bilimlarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchi tasviriy san’at turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi hilpiragan tasma tasvirini ishlay oladi. **M** – o‘quvchi grafikada chizish jarayonida nur-soya qoidalariga, o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – o‘quvchi grafikada tasma tasvirini ishlash jarayonida elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi grafikada bo‘yash jarayonida element shakliga mos shtrix yo‘nalishlarini to‘g‘ri bera oladi. **T** – o‘quvchi shtrixlash jarayonida nur-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	Suhbat, tushuntirish, klaster, muammoli vaziyat, konfronto, taqdimot
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, mum va rangli qalamlar, o‘chirg‘ich

	Sinf doskasi-ning bezagi		*Hilpiragan O‘zbekiston bayrog‘i, hilpiragan tasma tasviri*	
	Atamalar	Komponovka, nisbat, shtrix, nur-soya		
DARSNING BORISHI				
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Avvalgi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkam-lash	1. Yo‘lsimon naqsh qanday qismlardan tashkil topadi? 2. Yo‘lsimon naqsh bezaklarini qayerlarda ko‘rishimiz mumkin? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.		
Darsning maqsadli yoritilishi				
	Yangi mavzu bayoni	Nur-soya borliqdagi barcha narsalarda mavjud bo‘lib, u yor-damida tevarak-atrofimizdagi barcha narsalarni hajmli shaklda ko‘ramiz. Narsalardagi nur va soya ma’lum bir qoidalar asosida joylashadi: 1. Blik – jismdagi eng yaltiragan qism (quyosh nuri tushgan joy). 2. Yorug‘lik – jismga yorug‘lik tushgan qism. 3. Yarimsoya – nur va soya oralig‘idagi qism. 4. Soya – jismning yorug‘lik tushmagan qismi.		

		5. Refleks – jismning soya qismiga tushgan yorug‘likning aksi. 6. Tushuvchi soya – jismning yerga yoki stolga tushgan soyasi. 
	Amaliy ish	Amaliy ish jarayonida hilpiragan tasmani chizish usullari sinf doskasida bosqichma-bosqich ko‘rsatib beriladi.    

Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Atamalar bahsi” metodi	Atamalarni o‘z joyiga joylashtiring. 
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Grafikada hilpiragan tasma tasvirini ishlash (mashq daftarida berilgan mavzuga oid vazifani bajaring).
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

4-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**2–3 xil mevalardan tuzilgan natyurmort chizish**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga grafikada ishlash usullarini o‘rgatish, nur-soya qoidasi bilan ishlash usullarini o‘rgatish va ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning atrof-muhitga nisbatan kuzatuvchanlik-larini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasviriy san’atning grafika turi haqidagi bilimlarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi  	**S** (science) **–** tabiiy fanlar. **T** (technology) **–** texnologiya. **E** (engineering) – muhandislik. **A** (art) – san’at. **M** (math) – matematika.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	Suhbat, tushuntirish, klaster, muammoli vaziyat, konfronto, taqdimot
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar

	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, mum va rangli qalamlar, o‘chirg‘ich
		Kuz fasli, kuzgi mevalar rasmi
	Sinf doskasining bezagi	 
	Atamalar	Applikatsiya, komponovka, nisbat, eskiz
	DARSNING BORISHI	
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini 5 ta guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Avvalgi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning amaliy ishlari baholanadi
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash	1. Blik nima? 2. Soya jismning qanday qismi? 3. Yarimsoya nima? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Darsning maqsadli yoritilishi		
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu taqdimotlar orqali “Namoyish” metodi asosida tushuntiriladi. O‘lkamizda oltin kuz o‘z sepini yoygan. Bog‘larda olma, anor, nok, shaftoli, uzum, anjirlar, polizlarda esa tarvuz va qovunlar g‘arq pishgan.   Kuz faslida hosil bayrami o‘tkaziladi. **Hosil bayrami** odatda avgust oyining oxiri va sentyabr oyining boshlarida, tabiat eng go‘zal bo‘lgan vaqt – **baxmal** mavsumida o‘tkaziladi. **Baxmal mavsumi** – meva, sabzavot va poliz ekinlari g‘arq pishgan palla. 

Asosiy qism	Amaliy ish 	Amaliy ish jarayonida har bir guruhga topshiriq beriladi. **S guruhi:** kuzda tabiatning o‘zgarishi, kuzgi mevalar, anor va xurmoning shifobaxsh xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.  **T guruhi:** anor va xurmo natyurmortini applikatsiya usulida ishlaydi.  **E guruhi:** anor va olma daraxtining tuzilishini (maketini) ishlaydi. 

<table>
<tr><td></td><td></td><td>A guruhi: anor va xurmo natyurmortini rangli qalamlar bilan ishlaydi va grafikada natyurmort ishlash haqida ma’lumot beradi.
 
 
M guruhi: geometrik shakllardan anor va xurmo chizish usullarini ko‘rsatib beradi va mavzuga oid raqamli matn tuzadi.
Anor daraxtining bo‘yi 2 metrdan 10 metrgacha bo‘ladi.
Xurmo daraxtining bo‘yi 8 metrdan 12 metrgacha bo‘ladi.
 </td></tr>
<tr><td rowspan="4">Yakuniy qism</td><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Bu juda qiziq” metodi</td><td>Guruhlarga yangi mavzu yuzasidan qiziqarli ma’lumot tayyorlash vazifasi beriladi.
Masalan, anor – shifobaxsh o‘simlik. U inson organizmidagi qon miqdorini ko‘paytiradi va qonni tozalaydi. Anorning po‘stlog‘i, gullari, bargi ham tabobatda ishlatiladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Grafikada “Anor va xurmo” natyurmortini ishlash.
Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

5-DARS

<table>
<tr><td rowspan="8">Tashkiliy qism</td><td>Dars mavzusi</td><td colspan="3">“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusida natyurmort chizish</td></tr>
<tr><td>Dars maqsadi
Ta’limiy</td><td colspan="3">O‘quvchilarga grafikada natyurmort ishlash usullarini, nur-soya qoidasi bilan ishlash usullarini o‘rgatish va ularda tushuncha hosil qilish</td></tr>
<tr><td>Tarbiyaviy</td><td colspan="3">O‘quvchilarning atrof-muhitga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish</td></tr>
<tr><td>Rivojlantiruvchi</td><td colspan="3">O‘quvchilarning tasviriy san’atning grafika turi haqidagi bilimlarini rivojlantirish</td></tr>
<tr><td>STEAM maqsadi

</td><td colspan="3">S (science) – tabiiy fanlar.

T (technology) – texnologiya.



E (engineering) – muhandislik.

A (art) – san’at.

M (math) – matematika.</td></tr>
<tr><td>Dars turi</td><td colspan="3">Aralash</td></tr>
<tr><td>Dars metodi</td><td colspan="3">Suhbat, tushuntirish, klaster, muammoli vaziyat, konfronto, taqdimot</td></tr>
<tr><td>Darsga oid ko‘rgazmalar</td><td colspan="3">Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar</td></tr>
<tr><td></td><td>Dars jihozlari</td><td colspan="3">Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, mum va rangli qalamlar, o‘chirg‘ich</td></tr>
<tr><td></td><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>“Ko‘za va sarimsoqpiyoz” natyurmorti</td><td></td></tr>
<tr><td></td><td>Atamalar</td><td colspan="3">Simmetriya, komponovka, nisbat</td></tr>
</table>

DARSNING BORISHI		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik 5 ta guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	1. Anor daraxtining bo‘yi necha metrgacha bo‘ladi? 2. Anor daraxti qanday ramzni bildiradi? 3. Natyurmort deb nimaga aytiladi? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Yangi mavzu bayoni 	Yangi mavzu “Namoyish” metodi asosida taqdimotlar orqali tushuntiriladi: Konstruksiya – chizilayotgan shaklning ayrim qismlarini bo‘lakchalarga ajratib, qurilmasini hosil qilishni bildiradi. “Ko‘za va sarimsoqpiyoz” mavzusidagi natyurmortni chizishda avval ko‘za va sarimsoqpiyozning simmetrik va yordamchi chiziqlari, umumiy shakli chiziladi. Ko‘za va sarimsoqpiyozning fazoda joylashuvini ko‘rsatish maqsadida konstruktiv qurilmasi chizib olinadi. Natyurmortdagi shakllar qurilmasining aniq nisbatlari va narsalar tasviri o‘xshagandan keyin, grafik usulda yorug‘ va soya tuslari ishlanib, grafikada natyurmort tasviri hosil qilinadi.
	Amaliy ish 	Amaliy ish jarayonida har bir guruhga topshiriq beriladi. **S guruhi:** sarimsoqpiyoz va uning xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Sarimsoqpiyoz qadimdan iste’mol qilinadigan sabzavotlar qatoriga kiradi. Sarimsoqpiyoz yil davomida ikki marta: bahorda va kuzda ekiladi. Sarimsoqpiyoz shamollash va tumovning oldini oluvchi vositadir. Ayniqsa, pandemiya davrida uni iste’mol qilish yanada ommalashdi. 

Asosiy qism		**T guruhi:** ko‘za va sarimsoqpiyoz natyurmortini applikatsiya usulida ishlaydi.  **E guruhi:** ko‘za shaklining bir nechta eskizini taqdim etadi. 

Asosiy qism		**A guruhi:** ko‘za va sarimsoqpiyoz natyurmortini grafikada ishlash haqida ma’lumot beradi.     **M guruhi:** geometrik shakllardan ko‘za va sarimsoqpiyoz chizish usullarini ko‘rsatib beradi.  Ko‘za sarimsoqpiyozdan necha barobar katta?

Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Atamalar bahsi” metodi	Guruhlarga yangi mavzudagi atamalarga izoh berish vazifasi beriladi: simmetriya, blik, nisbat, soya, yarim soya, tushuvchi soya, refleks.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Grafikada “Ko‘za va sarimsoqpiyoz” natyurmortini ishlash. Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


7-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarning grafika haqidagi bilimlarini mustahkamlash
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning atrof-muhitga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tabiatga, uni asrab avaylashga qiziqishini uyg‘otish, ekologik tarbiyani shakllantirish
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchi tasviriy san’at turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi manzara, natyurmort janrini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **M** – o‘quvchi manzara chizish jarayonida perspektiva qoidalariga rioya qiladi. Natyurmort ishlash jarayonida o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – o‘quvchi manzara chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi grafikada manzarani bo‘yash jarayonida element shakliga mos shtrix yo‘nalishlarini to‘g‘ri bera oladi. **T** – o‘quvchi grafikada ishlash texnikasi qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Aralash dars (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Namoyish”, “Taqdimot”.
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, qora rangli qog‘oz (A4 o‘lchamda), o‘chirg‘ich, guash bo‘yogi, mo‘yqalam

	Sinf doskasining bezagi		Mavzuga oid rasmlar	 
	Atamalar	Qora fon, nisbat, oq shtrix, kontrast		
DARSNING BORISHI				
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**“Aqliy hujum” metodi** O‘quvchilarga qiziqarli savollar beriladi. Ularning javoblari tinglanadi. 1. Natyurmort deb nimaga aytiladi? 2. Natyurmortni grafik usulda chizishdan oldin nima qilish kerak? 3. Agar chizilayotgan predmetning eni bo‘yidan katta bo‘lsa, qog‘oz qanday qo‘yiladi? 4. Natyurmort asliga o‘xshagandan keyin qanday vazifa bajariladi? O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.		

	Darsning maqsadli yoritilishi	
	Yangi mavzu bayoni   Kontrast	Sinf doskasiga mavzu yoziladi: **Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish** Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish grafikada natyurmort ishlashning qiziqarli usullaridan biridir. Ba'zan kuchliroq ifodalilik uchun grafikada kontrast, ya'ni oq va qora ranglar qo'llanadi. Qora yoki quyuq kulrang fonda oq bo'r, oq rangli qalam yoki guash bilan tasvir chiziladi. Ishni yoritilgan qismlardan boshlashingiz kerak bo'ladi. Soya qismlari esa fon bilan birlashadi va shunda tasvir kontrastli, aniq, ifodali bo'lib chiqadi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ranglar kontrast ranglar deyiladi (masalan, oq va qora ranglar).  
		Sinf o'quvchilariga amaliy tarzda qora fonda natyurmort ishlash bosqichlari ko'rsatib beriladi. Qora fonni uch xil usulda tasvirlash texnikasi tushuntiriladi: 1. Qora rangli qog'oz yordamida; 2. Qora rangli guash yordamida; 3. Qora rangli akvarel bo'yog'i yordamida.  

Asosiy qism	“Namoyish” metodi	  O‘quvchilarga qora fonda natyurmort ishlash jarayoni video-rolik orqali namoyish qilinadi. 
	Amaliy ish	Amaliy ish jarayonida guruhlarda ishlash Amaliy ish jarayonida guruhlarga vazifa beriladi: **I guruh:** qora fon uchun A4 o‘lchamdagi qora rangli qog‘oz-dan foydalanadi. Buning uchun oddiy albom qog‘oziga qora rangli qog‘oz yelimlab yopishtiriladi va oq mumqalam yoki oq shtrixda tasvir ishlanadi. **II guruh:** oddiy A4 o‘lchamdagi rasm qog‘oziga qora guash surtib chiqiladi. Biroz quritib, oq qalamda, oq shtrixda tasvir ishlanadi. **III guruh:** oddiy A4 o‘lchamdagi rasm qog‘oziga qora fonda ixtiyoriy usulda (oq qalam, oq mumqalam, shtrix) natyurmort ishlaydi.


<table>
<tr><td rowspan="4">Yakuniy qism</td><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Taqdimot” metodi
</td><td>“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh o‘zlari foydalangan texnika usullari haqida gapirib beradilar.

Guruhlarning amaliy ishlari tahlil qilinadi va baholanadi, baholar izohlanadi. Dars davomida faol ishtirok etgan guruh o‘quvhilari rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash
</td><td>“Qora fonda oq rang bilan natyurmort chizish” mavzusidagi rasmni mashq daftariga chizing.
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

9-DARS

<table>
<tr><td rowspan="9">Tashkiliy qism</td><td>Dars mavzusi</td><td colspan="3">Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish</td></tr>
<tr><td>Dars maqsadi
Ta’limiy</td><td colspan="3">O‘quvchilarning grafika haqidagi bilimlarini mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>Tarbiyaviy</td><td colspan="3">O‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish, atrof-muhitga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish</td></tr>
<tr><td>Rivojlantiruvchi</td><td colspan="3">O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tabiatga, uni asrab-avaylashga qiziqishini uyg‘otish, ekologik tarbiyani rivojlantirish</td></tr>
<tr><td>CSMART maqsadi
</td><td colspan="3">C – o‘quvchi tasviriy san’at turlarini ajrata oladi.
S – o‘quvchi manzara janrini to‘g‘ri tasvirlay oladi.
M – o‘quvchi manzara chizish jarayonida perspektiva qoidalariga rioya qiladi.
A – o‘quvchi manzara chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi.
R – o‘quvchi grafikada manzarani bo‘yash jarayonida element shakliga mos shtrix yo‘nalishlarini to‘g‘ri bera oladi.
T – o‘quvchi grafikada ishlash texnikasi qonuniyatiga amal qiladi.</td></tr>
<tr><td>Dars turi</td><td colspan="3">Aralash dars (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)</td></tr>
<tr><td>Dars metodi</td><td colspan="3">“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Taqdimot”</td></tr>
<tr><td>Darsga oid ko‘rgazmalar</td><td colspan="3">Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar</td></tr>
<tr><td></td><td>Dars jihozlari</td><td colspan="3">Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, qora qalam, qora gelli ruchka, qora flomaster, rangli qog‘oz to‘plami (A4 o‘lchamda), o‘chirg‘ich, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam</td></tr>
<tr><td></td><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>Mavzuga oid rasmlar</td><td></td></tr>
<tr><td></td><td>Atamalar</td><td colspan="3">Rangli fon, shtrix, komponovka, perspektiva</td></tr>
</table>

<table>
<tr><th colspan="3">DARSNING BORISHI</th></tr>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td>a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash
</td><td>“Aqliy hujum” metodi
O‘quvchilarga qiziqarli savollar beriladi.
Ularning javoblari tinglanadi.
1. Natyurmort deb nimaga aytiladi?
2. Natyurmortda yorug‘-soya qonuniyati haqida aytib bering?
3. Agar chizilayotgan narsaning eni bo‘yidan katta bo‘lsa, qog‘oz qanday qo‘yiladi?
4. Kontrast ranglar deb nimaga aytiladi?
5. Qora fonni qanday usullarda ishlash mumkin?
O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Darsning maqsadli yoritilishi</td></tr>
<tr><td></td><td>Yangi mavzu bayoni
</td><td>Sinf doskasiga mavzu yoziladi:
Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish.

Manzara tasvirini bosqichma-bosqich chizishda perspektiva qoidalariga rioya qilinadi.
Manzara ishlashda rassom avvalo tabiatdan ilhomlanib, zavq beruvchi ko‘rinishni tanlaydi. Manzara ko‘rinishini grafikaning turli usullaridan foydalanib chizish mumkin. Grafikada manzara ishlashning qiziqarli turlaridan biri rangli qog‘oz yuzasiga qora qalam konturi va shtrixlar yordamida chizishdir. Bu usulning birinchi bosqichida manzaraning yorug‘-soya qismlari ingichka chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Keyingi bosqichda qora tush yoki flomaster bilan ishlov beriladi va grafik tasvir hosil qilinadi.
Sinf o‘quvchilariga amaliy tarzda rangli fonda manzara ishlash bosqichlari ko‘rsatib beriladi.
Manzara ishlash jarayonida komponovka, perspektiva qoidalariga rioya qilish lozimligi haqida tushuncha beriladi.</td></tr>
</table>

	Perspektiva qoidasi. 	   
	Amaliy ish 	Amaliy ish jarayonida guruhlarda ishlash. Amaliy ish jarayonida guruhlarga vazifa beriladi: **1-vazifa:** rangli (sariq, olovrang, moviy, qizil) qog‘ozni A4 o‘lchamli oq qog‘ozga yelimlab, qora qalam, qora gelli ruchka, qora flomasterda manzara tasvirini ishlash. **2-vazifa:** guashdan foydalangan holda A4 o‘lchamli oq qog‘ozni bo‘yab, qora qalam, qora gelli ruchka, qora flomasterda manzara tasvirini ishlash.  

<table>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Taqdimot” metodi
</td><td>“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh o‘zi foydalangan texnika usullari haqida gapirib beradi.

Guruhlarning amaliy ishlari tahlil qilinadi va baholanadi, baholar izohlanadi. Dars davomida faol ishtirok etgan guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>“Rangli fonda qora rang bilan manzara chizish” mavzusidagi rasmni mashq daftariga chizing.
</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

2-BOB. HAYKALTAROSHLIK

Haykaltaroshlik – tasviriy san’at turi bo‘lib, unda qattiq materiallarga qirqish, kesish, o‘yish, tarashlash orqali ishlov berib, san’at asarlari yaratiladi. Haykaltaroshlik san’atida asosan qattiq jismlardan: tosh, yog‘och, marmar, granit, bronza, gips va shu kabi materiallardan foydalaniladi.

Haykaltaroshlik san’ati ko‘rinishiga qarab dumaloq va qavariq (relyef) haykallar yaratish turlariga bo‘linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko‘rish mumkin.

Inson obrazining bosh qismi beligacha tasvirlansa, bunday haykallar **byust** deb ataladi.

Relyef (qavariq) haykallar esa yuzaga bo‘rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Relyeflar o‘z o‘rnida gorelyef va barelyeflarga bo‘linadi.

Gorelyef yuzaga yopishgan holda nisbatan bo‘rtib ko‘rinishi, hatto biror-bir dumaloq haykal darajasida ham bo‘lishi mumkin.

Barelyeflar yuzaga nisbatan kam bo‘rttirib tasvirlanadi.


Haykaltoroshlik borliqni hajmli shakllarda, uch o‘lchamda tasvirlashga asoslanadi.

Tasvirda asosan inson, shuningdek, hayvonlar (animalistik), tabiat (manzara) va narsalar (natyurmort) ishlanadi. Bu texnikaning asosi turli rangdagi plastilin yordamida ozroq yoki ko‘proq bo‘rttirib hosil qilingan yarim shaklli narsalarning gorizontal yuzaga tushirilgan bo‘rtma tasviri hisoblanadi.




10-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Haykaltaroshlik turlari**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga haykaltaroshlik haqida ma’lumot berish va plastilindan shilliqqurt bo‘rtma haykalini yasash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularni atrof-muhitga, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Tasvirni tekis yuzaga to‘g‘ri joylashtirish, ish jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish.
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi tekis yuzaga bo‘rtma usulda berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlay oladi. **M** – o‘quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ishlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirga badiiy bezak bera oladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	Tushuntirish, “Panno”, “Klaster”, “Taqdimot”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, plastilin, karton
	Sinf doskasining bezagi	 Haykaltaroshlik yo‘nalishidagi asarlardan namunalar 
	Atamalar	Tasvir, dumaloq haykal, bo‘rtma haykal, kontur-jgut, modulli bo‘rtma haykal, mozaikali bo‘rtma haykal

<table>
<tr><th colspan="3">DARSNING BORISHI</th></tr>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td>a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.
Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td>Bolajonlar, biz sizlar bilan 1-chorakda “Grafika” bo‘limida bir-biridan qiziqarli mavzularni o‘rganib chiqdik. Qani, ayting-chi, grafikada qanday rassomchilik ish qurollaridan foydalaniladi?


Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td></td><td>Yangi mavzu bayoni</td><td>Haykaltaroshlikning 2 ta asosiy – aylanib tomosha qilish imkonini beruvchi dumaloq hamda faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘rtma (qabariq tasvir) turi mavjud.
Relyef – tekis yuzaga (devorga) bo‘rttirib ishlangan tasvir.
Relyef barelyef va gorelyef turlariga bo‘linadi.
Barelyefda tasvir qalinligining yarmidan kamroq qismi bo‘rtib chiqqan bo‘ladi.
</td></tr>
</table>

		 **Gorelyefda** tasvir qalinligining yarmidan ko‘prog‘i bo‘rtib turadi.
Asosiy qism	Amaliy ish	O‘quvchilarga taqdimotlar orqali plastilinografiya usullari tushuntiriladi. Shuningdek, shilliqqurt haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Shilliqqurt chig‘anoqli qurt hisoblanadi. Uning chig‘anog‘i 5–6 santimetrgacha bo‘ladi. Kattalarining chig‘anog‘i to‘rt qavatli o‘ramgacha bo‘ladi. Shilliqqurt – o‘txo‘r hasharotdir. U doimo namlikda yashaydi.   Guruhlarga plastilindan shilliqqurt bo‘rtma haykalchasini yasash usullari beriladi. **I** guruhga: kontur-jgut usulida. **II** guruhga: modulli bo‘rtma haykal usulida. **III** guruhga: mozaikali bo‘rtma haykal usulida. **IV** guruhga: oddiy usuldagi bo‘rtma haykal.   


Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Atamalar bahsi” metodi “Panno” metodi	tasvir, dumaloq haykal, bo‘rtma haykal, kontur-jgut, modulli bo‘rtma haykal, mozaikali bo‘rtma haykal kabi atamalarga o‘quvchilar izoh beradilar. O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar va guruhlarning amaliy ishlari doskadagi pannoda umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Darslikda berilgan shilliqqurt bo‘rtma haykalini ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


11-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Kulol ustaxonasiga sayohat**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga kulolchilik haqida ma’lumot berish va plastilindan kulol tasvirini yasashni o‘rgatish, mavzu bo‘yicha ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning kulolchilik kasbiga qiziqishlarini o‘stirish, ularning milliy san’atimizni hurmat qilish va e’zozlashga o‘rgatish, ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasviriy san’atning haykaltaroshlik turi haqidagi bilimlarni rivojlantirish.
	STEAM maqsadi 	**S** (science) – tabiiy fanlar. **T** (technology) – texnologiya. **E** (engineering) – muhandislik. **A** (art) – san’at. **M** (math) – matematika.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	Tushuntirish, “Klaster”, “Taqdimot”, “Zakovatli zukko”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, oddiy qalam, plastilin, karton


	Sinf doskasining bezagi	*Kulolchilik san'ati namunalari* 
	Atamalar	Loy, gil, sopol, kulol, terrakota
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko'rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o'quvchilarini kichik 5 ta guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so'rash va baholash	O'quvchilarning avvalgi mavzu bo'yicha amaliy ishlari baholanadi
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**"Zakovatli zukko" metodi.** Guruhlarga avvalgi dars yuzasidan savollar beriladi. Haykaltaroshlikka izoh bering. (Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turi.) (Haykaltaroshlikda qattiq jismlarga kesib, o'yib ishlov berish orqali asarlar yaratiladi.) Haykaltaroshlik grafika va rangtasvirdan qanday farq qiladi? (Haykaltaroshlik grafika va rangtasvirdan uch o'lchamda bo'lishi bilan farqlanadi. Haykaltaroshlik asarlarini har tomonlama aylanib ko'rish mumkin) Haykaltaroshlik turlariga izoh bering. (Haykaltaroshlikning dumaloq va bo'rtma turlari bor. Hamma tomonlama ko'rish mumkin bo'lgan haykal dumaloq haykal deyiladi. Tekis yuzaga bo'rttirib ishlangan haykal esa bo'rtma haykal deyiladi) Dumaloq haykaltaroshlikka misollar ayting. O'quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu “Namoyish” metodi yordamida taqdimotlar orqali tushuntirib beriladi. Kulolchilik – hunarmandchilikning loy (gil)dan turli buyumlar (terrakota, sopol idish, sopol o‘yinchoq, qurilish materiallari va boshqalar) tayyorlanadigan turi.  Kulol usta Umar Jo‘raqulov (1894–1973)  Usta kulol M. Rahimov (1903–1985)
	Amaliy ish	Amaliy ish jarayonida har bir guruhga topshiriq beriladi. Darslikdagi matn bilan ishlanadi. **S guruhi:** kulolchilikdagi asosiy xomashyo haqida ma’lumot beradi. Kulolchilikda asosiy xomashyo tuproqdir. Tuproqlar sog‘ tuproq, qora tuproq, ko‘kimtir, qizil loykor tuproqlarga bo‘linadi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi.

Asosiy qism		  **T guruhi:** kulolchilikda loyni tayyorlash texnologiyasi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Kulolchilikda loyni ustalar turli usullarda tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilib, uni tepib, mushtlab pishitiladi. Loy 20 kungacha har kuni suv sepib pishitiladi va nam holicha usti yopib qo'yiladi. Keraklicha loyni olib, stol ustiga urib-urib pishitiladi.   **E guruhi:** guruhlarga kulol eskizini taqdim etadi. 

		A guruhi: guruhlarga tasvirni plastinografiya usulida ishlash jarayonini tushuntirib beradi. Masalan, kulol tasvirini fonini plastilinografiyaning jgut-kontur usulida ishlash mumkin.  Ko‘za va boshqa detallarni bo‘rtma usulda bajarish mumkin. **M guruhi:** guruhlarga simmetriya qoidasi asosida kulolning kiyimi va ko‘za tasvirini ishlab beradi.  
Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Atamalar bahsi” metodi	Relyef, gorelyev, barelyev
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Loy yoki plastilindan usta kulol tasvirini yasashni yakunlang va boshqa bir ixtiyoriy kasb-hunar vakilining tasvirini yasang
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

12-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Milliy o‘yinchoqlar haykalchalarini yasash**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga mayda haykaltaroshlik haqida ma’lumot berish va plastilindan qo‘zichoq haykalchasini yasash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, ularda o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Dumaloq haykal ishlash jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha mayda dumaloq haykal ishlay oladi. **M** – o‘quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shaklini va rangini to‘g‘ri tanlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirning badiiy bezagini ishlay oladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	Tushuntirish, “Kollaj” metodi, “Klaster”, “Taqdimot”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, plastilin, karton
	Sinf doskasining bezagi	 Mayda haykaltaroshlik asarlaridan namunalar 
	Atamalar	tasvir, dumaloq haykal, mayda haykalchalar, stek

<table>
<tr><th colspan="3">DARSNING BORISHI</th></tr>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td>a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.
Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash</td><td>Avvalgi dars mavzusi “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi.
Kulolchilikdagi asosiy xomashyo nima?
Kulolchilikda asosiy ish quroli nima hisoblanadi?
O‘zbekiston xalq rassomi kulol usta Umar Jo‘raqulov qaysi kulolchilik maktabiga asos solgan?
Plastilinografiya nima?
Plastilindan bo‘rtma haykal yasashning qanday usullari bor?
Plastilindan modulli bo‘rtma haykal qanday yasaladi?
Plastilindan mozaikali bo‘rtma haykal qanday yasaladi?
Plastilindan kontur-jgut usulida bo‘rtma haykal qanday yasaladi?
Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, xulosalar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
<tr><td></td><td>Yangi mavzu bayoni</td><td>Mayda plastika haykalchalari – o‘lchamlari uncha katta bo‘lmagan kichik dastgohli haykalchalardir.
Mayda plastika haykalchalari qimmatbaho tosh, loy, chinni, oyna, kabi ashyolardan tayyorlanadi. Shuningdek, mayda plastika haykalchalari insonga zavq berib, go‘zalligi bilan javonlarni, yozuv stollarini bezab turadi.

Hamro Rahimova
(1896–1979)</td></tr>
<tr><td></td><td></td><td>O‘zbekiston xalq amaliy san’atining mayda o‘yinchoqlar ustasi kulol Hamro Rahimova qadimiy an’anaviy mayda shakllar haykaltaroshligi namoyandasidir.</td></tr>
</table>

	Amaliy ish	Mayda plastika haykalchasini yasash uchun xalq ertaklari qahramonlaridan biri “qo‘zichoq”ni tanlaymiz. Qo‘zichoq soddalik, rahmdillik ramzi hisoblanadigan uy hayvoni bo‘lib, u har doim odamlar yonidadir. 
Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	”Kollaj” metodi	Guruh o‘quvchilarining ishlari “Yaylov” maketiga umumlashtiriladi. Natijada “Yaylov” haykaltaroshlik kompozitsiyasi yuzaga keladi. 
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Boshqa biror o‘yinchoq haykalchasini yasang.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

13-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Dasturxondagi noz-ne’matlar**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga milliy an’analarimizdan biri dasturxon haqida ma’lumot berish va plastilindan “Dasturxondagi noz-ne’matlar” tasvirini yasashni o‘rgatish, mavzu bo‘yicha ularda tushuncha hosil qilish.
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni milliy an’analarimizni hurmat qilish va e’zozlashga, ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning tasviriy san’atning haykaltaroshlik turi haqidagi bilimlarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi: 	**S** (science) – tabiiy fanlar. **T** (technology) – texnologiya. **E** (engineering) – muhandislik. **A** (art) – san’at. **M** (math) – matematika.

	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	Tushuntirish, “Kollaj” metodi, klaster, taqdimot		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozlari	Darslik, plastilin, rangli karton		
	Sinf doskasining bezagi		Mavzuga oid asarlardan namunalar	
	Atamalar	mayda plastika, dasturxon, noz-ne’mat		
DARSNING BORISHI				
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; v) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; d) sinf o‘quvchilarini kichik 5 ta guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash 	**“Bahs-munozara” metodi.** Guruhlarga avvalgi dars mavzusi yuzasidan savollar beriladi. 1. Mayda plastika nima? 2. Mayda plastika haykalchalari qanday ashyolardan tayyorlanadi? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.		
	Yangi mavzu bayoni 	Yangi mavzu “Taqdimot” metodi yordamida taqdimotlar orqali tushuntiriladi. Dasturxon O‘rta Osiyo va boshqa Sharq xalqlarida ovqatlanish vaqtida to‘shaladigan mato bo‘lib, uni turli yeguliklar bilan bezatadilar. Bizda dasturxon mehmondo‘stlik ramzi hisoblanadi. Dasturxon to‘shalgandan keyin eng avval non qo‘yiladi. Undan keyin dasturxonga choy keltiriladi. So‘ng boshqa noz-ne’matlar bilan dasturxon bezatiladi.  		

Asosiy qism

Amaliy ish









Amaliy ish jarayonida har bir guruhga topshiriq beriladi.

S guruhi: dasturxonga qo‘yiladigan mevalar haqida ma’lumot beradi.

Masalan, darslikda berilgan olma, nok va olxo‘ri kuz ne’matlaridir. Olma – temir moddasiga boy bo‘lgan meva. Olma mevasida 15% gacha qand, temir, kaliy, mis, B1, B2, PP vitamin, folat kislotasi mavjud bo‘lib, u shifobaxsh meva hisoblanadi.





T guruhi: dasturxonga qo‘yiladigan choynak-piyola va ko‘zaning ishlanishi texnologiyasi haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Kulolchilik buyumlarini uch turga ajratishgan – loydan yasalgan idishlar, sopol buyumlar va chinni buyumlar. Kulolchilik buyumlarining eng oddiy namunasi – loy idish loydan tayyorlanadi va maxsus pechlarda kuydiriladi.

E guruhi: dasturxonga qo‘yiladigan ko‘za va obdasta eskizini chizib, yasaydi va taqdim etadi.

Obdasta qadimdan choy va ichimliklar uchun idish sifatida ishlatib kelinadi. Kulol ustalar unga badiiy ishlov berib yasaydilar.










A guruhi: guruhlarga tasvirni dumaloq haykal usulida ishlash jarayonini tushuntirib beradilar.

		  **M guruhi:** guruhlarga “Dasturxon” haykaltaroshlik kompozitsiyasi elementlarining konstruktiv tahlilini qilib beradi. Ya’ni barcha elementlarning geometrik tuzilishini ko‘rsatadi. Non – doira. Olma – aylana. Nok – katta aylana, kichik aylana. Olxo‘ri – oval. Dasturxon – kvadrat. Obdasta – aylana, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak.
Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Taqdimot” metodi	Guruhlar amaliy ishlarining taqdimotini qiladilar va izohlaydilar.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Yasagan dasturxoningizni boshqa idish va mevalar bilan to‘ldiring.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

14-DARS

	Dars mavzusi	**“Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida haykal ishlash**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga “Ur, to‘qmoq!” ertagi haqida ma’lumot berish va ertak asosida haykal ishlash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, ularda o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Dumaloq haykal ishlah jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish

Tashkiliy qism	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi berigan mavzu bo‘yicha mayda dumaloq haykal ishlay oladi. **M** – o‘quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlash jarayonida uning elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shaklini va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirga badiiy bezak bera oladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	Tushuntirish, “Modellashtirish” metodi, “Aqliy hujum”, “Taqdimot.
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, plastilin, rangli karton
	Sinf doskasining bezagi	 “Ur, to‘qmoq!” ertagiga oid rasmlar 
	Atamalar	Tasvir, dumaloq haykal, stek, simmetriya, nisbat
DARSNING BORISHI		
Asosiy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; v) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; d) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash 	Avvalgi dars “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi. Plastilinografiya nima? Bizda dasturxon nimaning ramzi hisoblanadi? Dasturxonga avval nima qo‘yiladi? Non qo‘yilgandan keyin nima qo‘yiladi? Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	O‘zbek xalqining ajoyib ertagi “Ur, to‘qmoq!” katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chol va laylak ertakning asosiy qahramonlaridir. “Ur, to‘qmoq!” ertagi insonlarni yaxshilikka yetaklaydi, yolg‘on gapirmaslikka, omonatga xiyonat qilmaslikka undaydi. “Taqdimot” metodi orqali o‘quvchilarga “Ur, to‘qmoq!” ertagi asosidagi videolavha qo‘yib beriladi.  
	Amaliy ish  “Modellashtirish” metodi	Darslik bilan ishlanadi.    Amaliy ish jarayonida guruhlarga alohida vazifalar beriladi. Guruh o‘quvchilari “Modellashtirish” metodi asosida haykal ishlaydilar. **1-guruh:** “Ur, to‘qmoq!” ertagidagi laylakning birinchi hadyasi “Qaynar xumcha”ni tasvirlab beradi.   **2-guruh:** “Ur, to‘qmoq!” ertagidagi laylakning ikkinchi hadyasi – “Ochil dasturxon”ni tasvirlab beradi.

<table>
<tr><td rowspan="4">Asosiy qism</td><td></td><td> 

3-guruh: “Ur, to‘qmoq!” ertagidagi laylakning uchinchi hadyasi – “Ur, to‘qmoq!”ni tasvirlab beradilar.
 </td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Kollaj” metodi</td><td>Guruh a’zolarining ishlari umumlashtiriladi.
Guruhlarga mavzu yuzasidan savollar beriladi.
1. “Ur, to‘qmoq!” qaysi xalq ertagi?
2. “Ur, to‘qmoq!” ertagining asosiy qahramonlari kimlar?
3. Qissadan hissa nima?
Guruh a’zolarining javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darslikda berilgan, “Ur, to‘qmoq!” ertagi asosida ishlangan haykalni yakunlash, ixtiyoriy boshqa ertak asosida haykal ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

3-BOB. RANGTASVIR

Rangtasvir – tasviriy san’atning eng jozibali turi. Boshlang‘ich sinflarda “Rangtasvir” bobi o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘tiladi. Shuningdek, mavzular soddadan murakkabga tamoyili asosida o‘rgatiladi. Milliy o‘quv dasturida mavzular sodda va qiziqarli berilgan.

Rangtasvir asarlari moybo‘yoq, akvarel, guash kabi turli bo‘yoqlar bilan qog‘oz, mato, karton, devor, oyna kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asarlarida rang asosiy o‘rinni egallaydi.

Rangtasvirning dastgohli, mahobatli, miniatyura turlari mavjud. Dastgohli rangtasvir deganda rassomlar maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan asarlar tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo‘lmagan tekis yuzali materiallarga bo‘yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko‘pincha moybo‘yoq va akvareldan foydalaniladi.

Mahobatli rangtasvir asarlari katta o‘lchovda bo‘ladi va ular ko‘pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga moybo‘yoq, tempera bo‘yoqlari bilan ishlanadi.

Miniatyura (mo‘jaz) rangtasvir asarlari bejirim, juda kichik, nozik bo‘ladi. Rangtasvirning bu turi Sharqda, xususan, O‘rta Osiyoda katta shuhrat qozongan. Hozir undan nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomoshaqovoq kabilarni bezashda ham keng foydalanilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at fanining “Rangtasvir” bobida quyidagi ish qurollari ishlatiladi:


Qalam va mo‘yqalamlar, suv idish, palitra, guash, akvarel bo‘yog‘i, o‘chirg‘ich.










17-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Kamalak. Asosiy va hosila ranglar. Ranglar qorishmasi**		
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarda asosiy va hosila ranglar haqida tushuncha shakllantirish. Asosiy va hosila ranglarni hosil qilish bosqichlarini o'rgatish		
	Tarbiyaviy	Rangshunoslik bilimlari orqali tasviriy san'atning rangtasvir turiga o'quvchilarning qiziqishini oshirish		
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarda mustaqil ravishda ranglarni bir-biriga qorishtirib, yangi rang hosil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish		
	CSMART maqsadi	**C** – o'quvchi rang turlari, asosiy va hosila ranglarni ajrata oladi. **S** – o'quvchi ranglarni bir-biriga qorishtirib, rang hosil qila oladi. **M** – Ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladi. **A** – o'quvchi tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to'g'ri foydalana oladi. **R** – Tasvirni chizish va bo'yashda turli ranglarni qorishtirib, yangi rang hosil qila oladi. **T** – o'quvchi berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo'yab, yakunlay oladi.		
	Dars turi	An'anaviy (yangi bilimlarni o'zlashtirish va amaliy mashg'ulot)		
	Dars metodi	"Konfronto", "Taqdimot", "Aqliy hujum"		
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o'chirg'ich, mo'yqalam va bo'yoqlar		
	Sinf doskasining bezagi		Asosiy va hosila ranglar	 

	Atamalar	Asosiy ranglar, hosila ranglar
DARSNING BORISHI		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; v) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; d) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi. Plastilinografiya nima? Plastilindan bo‘rtma haykal yasashning qanday usullari bor? Plastilindan modulli bo‘rtma haykal qanday yasaladi? Plastilindan mozaikali bo‘rtma haykal qanday yasaladi? Plastilindan kontur-jgut usulida bo‘rtma haykal qanday yasaladi? Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, xulosalar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Ranglar asosiy va hosila ranglarga bo‘linadi. Tasviriy san’atda uchta asosiy rang mavjud. Ular qizil,sariq va ko‘k (havorang). Asosiy ranglarni bir-biriga qorishtirib hosila ranglarni keltirib chiqarish mumkin. Masalan: sariq rang + qizil rang = olovrang, qizil rang + ko‘k rang = siyohrang, ko‘k rang + sariq rang = yashil rangni hosil qiladi. Tabiatda 200 dan ortiq ranglar mavjud bo‘lib, asosiy va hosil bo‘lgan ranglarni bir-biriga qo‘shish orqali turli ranglarni keltirib chiqarish mumkin. Rassom asar yaratayotganda mana shu ranglarni bir-biriga qo‘shib, sehrli mo‘jiza yaratadi. Asosiy ranglardan hosila ranglarni keltirib chiqarish uchun albomimizga uchar sharlar tasvirini chizamiz.  

<table>
<tr><td rowspan="5">Yakuniy qism</td><td>Amaliy ish</td><td>Oddiy qalamda uchar sharlarni chizib olamiz.
Ranglar bilan ishlash oson bo‘lishi uchun geometrik shaklga ega bo‘lgan shar tasviridan foydalanamiz. Albomga aylana yoki oval shaklli shar tasvirini chizamiz. Shar asosiy ranglar bilan bo‘yaladi. Shakllarning tasviri to‘liq bo‘yaladi. Har bir rang boshqa sharning bir bo‘lagida ustma-ust bo‘yalishi natijasida qorishib, hosila rangni paydo qiladi. O‘quvchi mo‘yqalam bilan ranglarni qorishtirish texnikasini yaxshi o‘zlashtirishi uchun shunga o‘xshash usulda suvli bo‘yoqlar yordamida rang qorishmasini chiqarish o‘rgatiladi.
  </td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Konfronto” metodi, “Taqdimot” metodi</td><td>Guruh holida yoki yakka tartibda o‘quvchilar bilan “Konfronto” metodidan foydalanib qiziqarli savol-javob o‘tkaziladi. O‘quvchilarga turli reproduksiyalar ko‘rsatiladi. Ular asarlardagi ranglarni taqqoslab, qaysi ranglar qorishmalaridan foydalanilganini tushuntirib beradilar. “Taqdimot” metodi asosida guruh yoki yakka tartibda ranglarni qorishtirib, yangi rang hosil qiladilar.
Guruh yoki yakka tartibda o‘quvchilar yangi hosil qilgan ranglar taqdimoti ko‘rib chiqiladi.
 </td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darslikda berilgan uchar shar tasvirini ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

20-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**Iliq ranglar. “Yo‘lbars bolasi” rasmni ishlash**		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda rang turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash (iliq va sovuq ranglarni qo‘llash haqida tushuncha berish)		
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning yovvoyi tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar haqida qiziqatli ma’lumotlar bilan tanishtirish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tabiatga, uni asrab-avaylashga qiziqish uyg‘otish, ekologik tarbiyani rivojlantirish		
	STEAM maqsadi: 	**S** (science) – tabiiy fanlar. **T** (technology) – texnologiya. **E** (engineering) – muhandislik. **A** (art) – san’at. **M** (math) – matematika.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Pantomima”, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi, “Noan’anaviy metod”		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam		
	Sinf doskasining bezagi		Yo‘lbars bolasining tasviri	
	Atamalar	Akvarel va guash bo‘yoqlari, asosiy, hosila, iliq va sovuq ranglar. Axromatrik va xromatik ranglar		
DARSNING BORISHI				
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; v) doskaga mavzuni yozish, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; d) sinf o‘quvchilarini 3 ta kichik guruhga ajratish va guruhlarni nomlash. Masalan: “Yovvoyi hayvonlarni o‘rganuvchilar” guruhi; “Uy hayvonlarini o‘rganuvchilar” guruhi; “Suv hayvonlarini o‘rganuvchilar” guruhi.		

	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	**“PANTOMIMA” METODI** O‘quvchilar aytilgan rang va narsani pantomimik qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib beradilar. Atrofimizdagi turli narsalarning rangi va shaklini qo‘l harakatlari bilan tasvirlaymiz. O‘qituvchi turli ranglarni ketma-ketlikda aytib boradi, o‘quvchilar esa iliq rang bo‘lsa, qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. O‘quvchilarning diqqatini jamlash maqsadida rang turlari aralash holda aytib boriladi. Ranglar mavzusi takrorlab olinadi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar chizgan rasmlar ko‘rib, baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
Darsning maqsadli yoritilishi		
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni STEAM	**KICHIK GURUHLARDA ISHLASH METODI** “Yovvoyi hayvonlarni o‘rganuvchilar” guruhi. “Uy hayvonlarini o‘rganuvchilar” guruhi. “Suv hayvonlarini o‘rganuvchilar” guruhi. **S (science) – tabiiy fanlar.** Guruhlarga savol va topshiriqlar beriladi. Har bir guruhga berilgan vazifa baholab boriladi. **1-topshiriq.** Har bir guruh o‘ziga tegishli hayvon nomlarini yozib chiqadi (belgilangan ma’lum vaqtda). **2-topshiriq.** Yozilgan hayvon nomlari 2 guruhga ajratiladi. Turli yo‘nalishlar asosida guruhlarga ajratish mumkin, masalan, geografik joylashuvi yoki o‘txo‘r va go‘shtxo‘r ekaniga qarab. Yangi mavzuni o‘tishda kichik guruhlardagi ma’lumotlar kengaytirilib, tushuncha beriladi va ularning xato-kamchiliklari ko‘rsatib ketiladi. Yangi mavzu guruhlar javobiga bog‘lab tushuntiriladi. Tabiatda yo‘lbarslar ikki turda uchraydi: oq va mallarang.

Asosiy qism


Amaliy ish



T (technology) – texnologiya.

Amaliy ish jarayonida guruhlarda ishlash “Simmetriya usuli”da texnologiya fani bilan bog‘liq holda olib boriladi.


Bu usulda tasvirning to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinishini proporsiya va simmetrik bo‘linish bilan tasvirlash mumkin.




E (engineering) – muhandislik.

Yo‘lbars bolasi tasvirini o‘quvchining yosh xususiyatini hisobga olgan holda geometrik shakllar yordamida chizish mumkin.

Buning uchun yo‘lbars bolasi tasvirini loyihalab olamiz. Chizmadan qolip tayyorlanadi.



		A (art) – san’at. Yo‘lbars bolasi tasvirini chizish usuli o‘quvchining yosh xususiyatini hisobga olgan holda tanlab olinadi va ko‘rsatib beriladi. 
Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Bu qiziq” metodi 	**M (math) – matematika.** **Bu qiziq!** Yo‘lbarslar mushuksimonlar oilasiga kiradi. Yo‘lbarslar o‘rtacha 15 yil yashaydi. Malay yo‘lbarslari esa 50 yil umr ko‘rar ekan. Yo‘lbarslarning o‘rtacha vazni 400–550 kg, uzunligi 3–3,5 m ni tashkil qiladi. Yo‘lbarslar 6 tagacha bola tug‘adi, ular 2–2,5 yoshgacha onalari bilan qoladilar. Yo‘lbarslar 5 metrdan 10 metrgacha balandlikka sakray oladi. Mavzu asosida savol-javob qilinadi, faol guruhlar rag‘batlantiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


25-DARS

<table>
<tr><td rowspan="8">Tashkiliy qism</td><td>Dars mavzusi</td><td colspan="3">Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab o‘zgarishini tasvirlash</td></tr>
<tr><td>Dars maqsadi
Ta’limiy</td><td colspan="3">O‘quvchilarga tabiatni kuzatishni o‘rgatish, daraxt turlari haqida tushuncha berish. Ularda turli bo‘yash usullarini ishlatish qobiliyatini shakllantirish</td></tr>
<tr><td>Tarbiyaviy</td><td colspan="3">O‘quvchilarning bahorda birinchi gullaydigan mevali daraxtlar haqidagi bilimlarini kengaytirish (tabiiy fanlar integratsiyasi asosida mavzuni tushuntirish)</td></tr>
<tr><td>Rivojlantiruvchi</td><td colspan="3">O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, tabiatga, uni asrab-avaylashga, qiziqishini uyg‘otish. Ularda ekologik tarbiyani shakllantirish</td></tr>
<tr><td>STEAM maqsadi
</td><td colspan="3">Mavzuni STEAM dasturi asosida tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. Tasvirni bir necha texnik yo‘nalish asosida chizish va bo‘yash o‘rgatiladi.</td></tr>
<tr><td>Dars turi</td><td colspan="3">Aralash</td></tr>
<tr><td>Dars metodi</td><td colspan="3">“Nima uchun?”, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi, “Loyihalash”</td></tr>
<tr><td>Darsga oid ko‘rgazmalar</td><td colspan="3">Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar</td></tr>
<tr><td></td><td>Dars jihozlari</td><td colspan="3">Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam</td></tr>
<tr><td></td><td>Sinf doskasining bezagi</td><td>
</td><td>Daraxtlarning yil fasllariga qarab o‘zgarishi tasviri</td><td>
</td></tr>
<tr><td></td><td>Atamalar</td><td colspan="3">Iliq, sovuq, axromatik va xromatik ranglar</td></tr>
</table>

<table>
<tr><th colspan="3">DARSNING BORISHI</th></tr>
<tr><td rowspan="3"></td><td>Tashkiliy qism</td><td>a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
v) doskaga mavzuni yozish, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
d) sinf o‘quvchilarini 3 ta kichik guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td>O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash</td><td>O‘quvchilar atrofdagi turli narsalarning rangi va shaklini kuzatadilar.
“Nima uchun?” metodi asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi.
“Iliq va sovuq ranglar”, “Axromatik va xromatik ranglar”, “Tabiat dunyosi” mavzularida yuqoridagi metod asosida qisqa savol-javob o‘tkaziladi.
Bundan tashqari, o‘qituvchi turli ranglarni ketma-ket aytib boradi, o‘quvchilar esa bu ranglar qayerda, nimalarda uchrashi mumkinligini aytishadi. O‘quvchilarning diqqatini jamlash maqsadida rang turlari aralash holda aytib boriladi. O‘tilgan mavzu shu tarzda takrorlab olinadi.
Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar chizgan rasmlar ko‘rib, baholanadi.
O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.</td></tr>
<tr><th colspan="3">Darsning maqsadli yoritilishi</th></tr>
<tr><td>Asosiy qism</td><td>Yangi mavzu bayoni
STEAM</td><td>S (science) – tabiiy fanlar.
O‘zbekistonda tabiatni to‘rt fasli ham go‘zal.
Tabiatning go‘zalligi atrofimizdagi turli daraxtlar bilandir.
Daraxtlar ekilish maqsadiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:
1. Manzarali daraxtlar.
2. Mevali daraxtlar.

“Nima uchun?” metodi asosida qiziqarli savol-javob o‘tkaziladi.</td></tr>
</table>

<table>
<tr><td></td><td></td><td>
“Nima uchun?” metodi asosida qiziqarli savol-javob o‘tkaziladi.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Asosiy qism</td><td>Amaliy ish</td><td>T (technology) – texnologiya.
Amaliy ish jarayonida texnologiya fani bilan bog‘iq holda berilgan mavzuning 3 o‘lchamli tasviri va hajmli ko‘rinishi hosil qilinadi.
</td></tr>
<tr><td></td><td>Bu usulda uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinishini proporsiya va simmetrik bo‘linish bilan ham tasvirlash mumkin.

E (engineering) – muhandislik.
“Loyihalash” va “Modellashtirish” metodlari asosida turli geometrik shakllar bilan eskiz chizib olinadi.
</td></tr>
</table>

Asosiy qism		Eskiz ko‘rinishi chizib olinib, 3D modeli yasaladi. Chizilgan tasvirdan qolip tayyorlanadi.  Turli xil lekalo tayyorlanadi. Qolip tayyorlab, 3D modeli yasaladi. **A** (art) – san’at. “Bo‘rtmarelyef” plastilinografiya texnikasi asosida tasvir bajarish.

Asosiy qism		 
		“Bostirma” texnikasi. Tasvir yordamchi chiziqlar bilan bosqichma-bosqich chizib olinadi. So‘ng qurilish mo‘yqalamlari yoki maxsus tayyorlangan momiq bostirgichlar yordamida bo‘yaladi. Tasvir ishlash texnikasi 

		
Asosiy qism		Tasvir ishlash texnikasi 
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Bu qiziq” metodi	**M (math) – matematika.** “Qiziqarli raqamlar” metodi Tarkibida qand 14–16%, kislotalar 0,6 – 1,2%, S, PP vitamini 28–31%, pektin moddasi 0,38–1,27%, karotin 10 mg gacha, yog‘ 29–58%.

		  Mavzu asosida savol-javob qilib, faol guruhlar rag‘batlantiriladi.
Yakuniy qism	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish, tasvir ishlashda turli texnik yo‘nalishlarni tanlash   
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

4-BOB. KOMPOZITSIYA

Kompozitsiya lotincha “compositio” so‘zidan olingan bo‘lib, “turli qismlarni bir butunga birlashtirish, bog‘lash” ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda kompozitsiya rasm tekisligi va tasvir o‘rtasidagi munosabatni bildiradi.


Tasviriy san’atda kompozitsiya rassom g‘oyasini aniq ifoda etish vositasi bo‘lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo‘ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o‘zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o‘zaro uyg‘unligi tashkil qiladi. Tasviriy san’atning har bir turi o‘ziga xos kompozitsion uslublarga ega.

28-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	**“Koinotga parvoz” mavzusida kollaj usulida kompozitsiya ishlash**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda kollaj haqida tushuncha shakllantirish. Kollaj usulida kompozitsiya ishlash bosqichlarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	Kompozitsiya orqali o‘quvchilarning koinot haqidagi bilimlarini oshirish, ularga sayyoralar va yulduzlar to‘g‘risida ma’lumot berish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda mustaqil ravishda kompozitsiya tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchilar tasviriy san’at turlari asosida kompozitsiya tuza oladilar. **S** – o‘quvchilar kompozitsiyani bosqichlar ketma-ketligida tuza oladilar. **M** – ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladilar **A** – o‘quvchilar tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to‘g‘ri foydalana oladilar. **R** – tasvirni chizish va bo‘yashda turli usullarni to‘g‘ri qo‘llay oladilar. **T** – o‘quvchilar berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo‘yab, yakunlay oladilar.
	Dars turi	Aralash (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Taqdimot”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, mo‘yqalam va rangli bo‘yoqlar, qaychi, yelim, karton

	Sinf doskasining bezagi		Koinot haqidagi rasmlar	
	Atamalar	Kollaj, kompozitsiya		
DARSNING BORISHI				
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars mavzusi “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi. Kompozitsiya nima? Tasviriy san’atning qaysi turlarida kompozitsiya ishlatiladi? Bahor kompozitsiyasini tasvirlashda qanday ranglardan foydalaniladi? Pushti qaysi rang turiga kiradi? Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, xulosalar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.		
Darsning maqsadli yoritilishi				
	Yangi mavzu bayoni	Quyosh tizimini Quyosh, uning atrofidagi sakkizta sayyora va boshqa kichik osmon jismlari tashkil etadi. Quyosh – katta yulduz. U quyosh tizimining markazida joylashgan. Sayyoralar quyosh atrofida aylanadigan osmon jismlaridir. Quyosh tizimida sakkizta sayyora mavjud. Nega sayyoralar kvadrat shaklida emas? Sayyoralar tortishish kuchi tufayli dumaloqdir. Bu kuch hamma narsani markazga tortadi va shar shaklini hosil qiladi. Biz yashayotgan sayyora Yer deb ataladi. Yer Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha uchinchi sayyora hisoblanadi.		

		Koinotni o‘rganish uchun fazogir bo‘lish kerak. Fazogirlar fazo kemasiga o‘tirib, koinotga sayohat qiladilar va uni o‘rganadilar. Bilasizmi, birinchi fazogir Yuriy Alekseyevich Gagarin bo‘lgan. U “Vostok” fazo kemasida 1961-yil 12-aprelda Yer kurrasini aylanib chiqqan birinchi insondir. Shuning uchun 12-aprel “Fazogirlar kuni” sifatida nishonlanadi.  
Asosiy qism	Amaliy ish. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi	*Kollaj* fransuzcha so‘z bo‘lib, “yelimlash” degan ma’noni anglatadi. 


<table>
<tr><td rowspan="4">Asosiy qism</td><td></td><td>Kollaj usulida ishlash jarayonida chizilgan tasvir ustiga gazeta, jurnal va boshqalardan qirqib olingan rasm, yozuvlar yelimlab chiqiladi.
Kompozitsiyani bajarishda rangli qog‘oz, karton, qaychi, yelimning har qanday turidan foydalanish mumkin.
O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi.
Guruh a’zolariga vazifa yuklatiladi.
Masalan, bir o‘quvchi karton ustiga qog‘oz yelimlaydi.
Ikkinchi o‘quvchi yelimlangan qog‘ozga qora yoki to‘q ko‘k rangda fon beradi.
Uchinchi o‘quvchi fazo kemasi tasvirini chizadi.
Ikki o‘quvchi sayyoralarning tasvirini chizadi.
Guruh a’zolari ishni yakunlagandan so‘ng fon berib tayyorlangan qog‘ozga tasvirlarni qirqib yelimlaydi.</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td></td><td>Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td></td><td>“Taqdimot” metodi</td><td>Har bir guruh a’zolari yakka tartibda ishlagan tasvirlarini guruh uchun tayyorlangan karton qog‘ozli fonga yelimlaydilar. “Taqdimot” metodi asosida har bir guruh birgalikda tayyorlagan kollajining taqdimotini o‘tkazadi.</td></tr>
</table>

Yakuniy qism		  
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Dars jarayonida olingan tassurotlar asosida mashq daftariga “Koinotga sayohat” mavzusida kollaj ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

29-DARS

Tashkiliy qism	Dars mavzu:	**STATIKA VA DINAMIKA**		
	Dars maqsadi Ta'limiy	O‘quvchilarga mavzu asosida statika va dinamika haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Bu usullar asosida kompozitsiya bosqichlarini bajarishni o‘rgatish		
	Tarbiyaviy	Kompozitsiya orqali o‘quvchilarning koinot haqidagi bilimlarini oshirish, sayyoralar va yulduzlar to‘g‘risida ma'lumot berish.		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mustaqil ravishda kompozitsiya ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish		
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchilar tasviriy san'at turlari yoki usullari (kollaj) asosida kompozitsiya tuza oladilar. **S** – o‘quvchilar kompozitsiyani bosqichlar ketma-ketligida bajaradilar. **M** – ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladilar **A** – o‘quvchilar tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to‘g‘ri foydalana oladilar. **R** – tasvirni chizish va bo‘yashda turli texnik usullarni to‘g‘ri qo‘llay oladilar. **T** – berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo‘yab, yakunlay oladilar.		
	Dars turi	Aralash (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)		
	Dars metodi	“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Taqdimot”.		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, mo‘yqalam va rangli bo‘yoqlar		
	Sinf doskasining bezagi		Statika va dinamikaga oid rasmlar	
	Atamalar	statika, dinamika		

DARSNING BORISHI		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; v) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; d) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi. O‘quvchilar guruhlarga ajratiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars mavzusi “Aqliy hujum” metodi orqali mustahkamlanadi.  Suratdagi kim? Kollaj nima? Kollaj kompozitsiyasida qanday ish qurollari ishlatiladi? Birinchi fazogir inson kim? Birinchi fazogir uchgan kemaning nomi nima? Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, xulosalar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
Darsning maqsadli yoritilishi		
	Yangi mavzu bayoni. Dinamika, statika	Dinamika tasviriy san’atda harakat jarayonini anglatadi. Masalan: – sportchilarning musobaqada yugurishi; 

Asosiy qism		– raketaning koinotga parvozi;  – ot poygasi;  – suzayotgan sportchi va shu kabilar. 


Asosiy qism		Statika tinch holat va harakatsizlikni bildiradi. Masalan: – kosmonavt va parvozga tayorlanayotgan raketa;  – uxlayotgan odam; 
		– bog‘ga o‘rnatilgan haykal va shu kabilar. 


Asosiy qism	Amaliy ish. “Kichik guruh-larda ishlash” metodi	Birinchi guruh uchun topshiriq: “Raketa uchmoqda” rasmini bosqichma-bosqich ishlang.  Ikkinchi guruh uchun topshiriq: “Kosmonavt” rasmini bosqichma-bosqich ishlang. 




<table>
<tr><td rowspan="4">Yakuniy qism</td><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td>“Taqdimot” metodi
</td><td>“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh birgalikda tayyorlagan kompozitsiyali tasvirining taqdimotini qiladi.
Kompozitsiya qaysi usulda bajarilganini tushuntiradi: statikadami yoki dinamikada?
 </td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Dars jarayonida olingan taassurotlar asosida mashq daftariga “Kosmonavt” va “Raketa uchmoqda” mavzusidagi tasvirlardan birini ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>


30-DARS

	Dars mavzusi	**Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash**
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya haqida ma’lumot berish. Ochiq va yopiq kompozitsiya ishlash usullarini o‘rgatish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish, shuningdek, ularda o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda kompozitsiya tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish

	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchilar tasviriy san’at turlari asosida kompozitsiya tuza oladilar. **S** – o‘quvchilar kompozitsiyani bosqichlar ketma-ketligida ishlay oladilar. **M** – ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladilar. **A** – o‘quvchilar tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to‘g‘ri foydalana oladilar. **R** – tasvirni chizish va bo‘yashda turli texnik usullarni to‘g‘ri qo‘llay oladilar. **T** – berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo‘yab, yakunlay oladialar.
	Dars turi	Aralash (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Kichik guruhlarda ishlash”, “Taqdimot”, “Blits so‘rov”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, mo‘yqalam va rangli bo‘yoqlar
Tashkiliy qism	Sinf doskasining bezagi	**Mavzuga oid rasmlar**  
	Atamalar	Kompozitsiya, ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya

DARSNING BORISHI		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars “Blits so‘rov” metodi orqali mustahkamlanadi. Kompozitsiya nima? Tasviriy san’atning qaysi turlarida kompozitsiya ishlatiladi? Fazoviy kompozitsiya nima? Statika nima? Dinamika nima? Guruh o‘quvchilarining javoblari tinglanadi, xulosalar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
Darsning maqsadli yoritilishi		
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Ochiq kompozitsiyada tabiat manzarasi fonida jonivorlar yoki boshqa narsalar tasvirlanishi mumkin. Masalan, o‘rmondagi ayiq, tabiatdagi jirafa, daladagi traktor, tog‘dagi burgut, sahrodagi tuya va shu kabilar.  
		Yopiq kompozitsiyada esa narsa-predmetlar xona yoki binoning ichida tasvirlanadi. Masalan, sirk sahnasidagi masxaraboz, deraza tokchasidagi gullar, stol ustidagi ko‘za, kutubxonadagi kitoblar va shu kabilar.  

Asosiy qism	Amaliy ish. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi	Avval o‘quvchilarga ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash usullari tushuntirilib, amaliy tarzda ko‘rsatib beriladi. Kompozitsiya simmetrik, assimmetrik tarzda ishlanadi. Amaliy ishda guruhlarga vazifa beriladi. Ochiq turdagi kompozitsiya:
		   

Asosiy qism		Yopiq turdagi kompozitsiya:     


Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Taqdimot” metodi	“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh o‘z ishlarini taqdimot qiladi va kompozitsiyaning qaysi turida ishlangani haqida ma’lumot beradi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash 	Ochiq va yopiq turdagi kompozitsiya ishlash  
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


31-DARS

	Dars mavzusi	**Kompozitsiyadagi ritm**
Tashkiliy qism	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda rang turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Kompozitsiyadagi ritm haqida ma’lumot berish va bu haqida ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning tabiatga nisbatan kuzatuvchanliklarini va ijodkorliklarini o‘stirish
	Rivojlantiruvchi	Tasviriy san’atning ifoda vositalarini qo‘llagan holda tasvir yaratish, chizish bosqichlari, perspektiva qoidalariga rioya qilgan holda rangtasvirda kompozitsiya ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish
	CSMART maqsadi	**C** – o‘quvchilar tasviriy san’at turlari asosida kompozitsiya tuza oladilar. **S** – o‘quvchilar kompozitsiyani bosqichlar ketma-ketligida tuza oladilar. **M** – ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladilar. **A** – o‘quvchilar tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to‘g‘ri foydalana oladilar.

		R – tasvirni chizish va bo‘yashda turli texnik usullarni to‘g‘ri qo‘llay oladilar. **T –** berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo‘yab, yakunlay oladilar.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Trafaret” texnikasi, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi, “Blits so‘rov” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam		
	Sinf doskasining bezagi		Jo‘ja tasviri	
	Atamalar	Ritm, kompozitsiya		
DARSNING BORISHI				
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini 3 ta guruhga ajratish va guruhlarni nomlash.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.		
	Avvalgi darsni mustahkamlash 	Avvalgi dars “Qalamcha” metodi orqali mustahkamlanadi. Guruhlarga qalamcha maketi orqali tarqatma savollar beriladi. O‘quvchilar javob berib, qalamchani qalamdonga solib qo‘yadilar.  1-guruhga: Iliq ranglar deb nimaga aytiladi? Kompozitsiya atamasiga izoh bering.		

		2-guruhga: Sovuq ranglar deb nimaga aytiladi? Ochiq turdagi kompozitsiyaga izoh bering. 3-guruhga: Axromatik ranglarga qaysi ranglar kiradi? Yopiq turdagi kompozitsiyaga izoh bering. Guruhlarning javoblari umumlashtiriladi, to‘g‘ri javob bergan guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
Darsning maqsadli yoritilishi		
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni 	O‘quvchilarga ritm haqida ma’lumot beriladi. **Ritm** elementlarning ma’lum bir ketma-ketlikda almashinishi va takrorlanishidir.
		Manzara kompozitsiyasida ritm bir necha terak daraxtining yoki daraxtga tushayotgan quyosh nurining, ranglarning takrorlanishi tarzida bo‘lishi mumkin. Qushlarning uchib kelib, daraxt shoxiga ketma-ket qo‘nishi yoki parrandalarning navbat bilan don cho‘qishini tasvirlash kompozitsiyada ritm hosil qiladi. Naqsh kompozitsiyasida esa gullar ketma-ket almashinib yoki takrorlanib keladi.  
	Amaliy ish	Bugun siz bilan jo‘jalar tasvirida kompozitsiyadagi ritm chizish usullarini o‘rganamiz. O‘quvchilarga jo‘jalar haqida ma’lumot beriladi. Jo‘ja – tovuq (parranda) palaponi. Ular maxsus joylarda, 20–28 daraja iliq haroratda boqiladi. 40–60 kunligida esa haroratni 20 daraja iliqdan tushirish ham mumkin.

		Jo‘jalar moda va nar (jo‘jaxo‘roz) bo‘ladi. 
Asosiy qism	“Farqini top” o‘yini	 O‘quvchilar jo‘ja bilan o‘rdakchaning farqini topadilar.
	“Nusxa ko‘chirish” metodi 	O‘quvchilarga jo‘jalar kompozitsiyasini ritm asosida chizish usullari “Nusxa ko‘chirish” metodi orqali ko‘rsatib beriladi.  Guruhlarning ishlari kuzatiladi, ularga amaliy yordam ko‘rsatiladi.




Yakuniy qism	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Klaster” metodi	Guruhlarga savol beriladi. 1-guruh: kompozitsiyada ritm haqida so‘zlang. 2-guruh: naqsh kompozitsiyasida ritm haqida gapiring. 3-guruh: manzara janrida ritm qo‘llanishi haqida tushuncha bering.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

32-DARS

	Dars mavzusi	**4-nazorat ishi. “Hayvonot bog‘i”**
Tashkiliy qism	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarning kompozitsiya haqidagi bilimlarini mustahkamlash
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirish, hayvonot dunyosiga mehrini uyg‘otish. Ularni Toshkent hayvonot bog‘i va u yerdagi Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar haqida qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishtirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning so‘z boyligini boyitish, tabiatga qiziqishini uyg‘otish, va uni asrab avaylash, ekologik tarbiyani rivojlantirish.
	CSMART maqsadi	**C –** o‘quvchilar tasviriy san’at turlari asosida kompozitsiya tuza oladilar. **S –** o‘quvchilar kompozitsiyani bosqichlar ketma-ketligida tuza oladilar.

		M – ranglarni hosil qilishda rang nisbatlariga rioya qiladilar. **A** – o‘quvchilar tasvir ishlash jarayonida rang turlaridan to‘g‘ri foydalana oladilar. **R** – tasvirni chizish va bo‘yashda turli texnik usullarni to‘g‘ri qo‘llay oladilar. **T** – berilgan tasvirni asosiy va hosila ranglar bilan bo‘yab, yakunlay oladilar.
	Dars turi	Aralash (yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Taqdimot”
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, taqdimotlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozlari	Darslik, mashq daftari, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, mo‘yqalam
	Sinf doskasining bezagi	**Hayvonot bog‘i tasviri**  
	Atamalar	Komponovka, ritm, kompozitsiya

DARSNING BORISHI		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi
	Avvalgi darsmi mustahkamlash	“Aqliy hujum” metodi. O‘quvchilarga qiziqarli savollar beriladi. Ulardan qiziqarli javoblar tinglanadi. Yurakning bir maromdagi tovushini nima deb ataymiz? Musiqada ham ritm atamasi bormi? Tasviriy san’atda ritm qayerlarda ishlatiladi? Ritm turlari qaysilar? O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
Darsning maqsadli yoritilishi		
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	Guruhlarga savol va topshiriqlar beriladi. Har bir guruhga berilgan vazifa baholab boriladi. **1-topshiriq.** Har bir guruh Toshkent hayvonot bog‘idagi hayvon nomlaridan tegishlilarini yozib chiqadi (belgilangan vaqt mobaynida). **2-topshiriq.** Yozilgan hayvon nomlarini 2 guruhga ajratadilar. Hayvonlarni o‘txo‘r va go‘shtxo‘r, yirtqich va yovvoyi kabi turlarga ajratish mumkin. Kichik guruhlar bergan ma’lumotlarni kengaytirib, tushuncha beriladi va ularning xato-kamchiliklari ko‘rsatib ketiladi.

	“Bu qiziq” metodi Qiziqarli ma’lumotlar berish. O‘quvchilarning o‘zidan ham qiziqarli ma’lumot olish. Qizil kitobga kiritilgan 350 dan ortiq yo‘qolib ketayotgan hayvon turlari bor.	Yangi mavzu guruhlar javobiga bog‘lab tushuntiriladi. Toshkent hayvonot bog‘i 1924-yilda O‘rta Osiyo universiteti zoologlari tashabbusi bilan tashkil etilgan. 1997-yilning 1-sentyabrida Toshkent shahridagi botanika bog‘i yonida joylashgan yangi hayvonot bog‘i foydalanishga topshirildi. Uning hududi hozir 21,5 gektarga teng. Bugungi kunda hayvonot bog‘ida quyidagi bo‘limlar mavjud: “Akvarium”, “Terrarium”, “Primatlar”, “To‘tiqushlar”, “Qushlar”, “Yirtqichlar”, “Suv qushlari”, “Tuyoqlilar”, “Umurtqasizlar”, “Kichik sutemizuvchilar”, “Vivarium”, “Hayvonlarni ko‘paytirish bolalar bog‘chasi”. Zamonaviy Toshkent hayvonot bog‘ida Xalqaro va O‘zbekiston qizil kitoblariga kiritilgan, noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan jonivorlar ham mavjud.  
Asosiy qism	Amaliy ish	Amaliy ish jarayonida guruhlarda ishlash.     Har bir guruh A3 o‘lchamdagi qog‘ozga jamoaviy tasvir ishlaydi.

	Yangi mavzuni mustahkamlash	
	“Taqdimot” metodi	“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh birgalikda tayyorlagan kollaj yoki ritm kompozitsiyasi tasvirining taqdimotini qiladilar. Mavzu asosida savol-javob qilinadi, faol guruh rag‘batlantiriladi.
Yakuniy qism	Uyga vazifa be-rish va darsga yakun yasash	Mashq daftaridagi mavzuga oid vazifalarni bajarish. Hayvonot bog‘i tasvirini ishlash    
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

“SAN’AT MUZEYLARIGA SAYOHAT” METODI


Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni o‘zbek rassom va haykaltaroshlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun turli qiziqarli metodlardan foydalanish lozim. Bunda “San’at muzeylariga sayohat” metodi samarali natija beradi. Chunki bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar ham san’at muzeyi bilan, ham rassomlar va ularning asarlari bilan tanishadilar. Natijada o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi.

“San’at muzeyiga sayohat” darslarini onlayn va oflayn tarzda o‘tkazish mumkin.

TASVIRIY SAN’AT FANINING BAHOLASH MEZONI

Tasviriy san’at fani o‘quvchilarda badiiy estetik madaniyat, ijodkorona tafakkur va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga egadir. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda baholashning yangi tizimi joriy etilib, o‘quvchilarning bilimi va amaliy ko‘nikmalari munosib baholanishi ko‘zda tutilgan.

3-SINF UCHUN BAHOLASH VOSITALARI



BAHOLASH MEZONI

Ko‘nikmalar	O‘quv maqsadlari
Komponovka	3.1.1. Tasvirni qog‘oz yoki tekislik yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi.
Proporsiya	3.2.1. Tasvirni ishlashda nisbatni to‘g‘ri belgilaydi.
Estetika	3.3.1. Tasvirni ishlash jarayonida mavzuga tegishli barcha qoidalarni to‘g‘ri qo‘llaydi.
Tasvirni ishlash	3.4.1. Tasvir ishlash jarayonini to‘g‘ri boshlay oladi.
	3.4.2. Tasvirni ishlash ketma-ketligini biladi.
	3.4.3. Tasvirni to‘liq ishlay oladi.

Baholash shkalasi. 5 balli baholash shkalasi saqlab qolinadi. Har bir shkalaga mos baholash me’zonlari sinovdan o‘tkaziladi.

Belgilangan vazifa	To‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Noto‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Baholash
5	5	-	5
5	4	1	4
5	3	2	3
5	2	3	2
5	1	4	1

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

TASVIRIY SAN'AT FANIDAN MAVZULAR BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI

Sana			
Mavzu			
O'quvchining F. I. O.			Jami to'plangan ball
1-vazifa	Tasvirning qog'ozga to'g'ri joylashtirilishi	1	
2-vazifa	Chizish ketma-ketligi to'g'ri bajarish	1	
3-vazifa	Topshiriqni bajarish jarayonida ish qurollaridan to'g'ri foydalanish	1	
4-vazifa	Topshiriqlarni mustaqil chiza olish	1	
5-vazifa	Yakunlangan ishni namoyish etish va tahlil qilish	1	

O‘quv nashri

TASVIRIY SAN’AT

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

(Ta’lim o‘zbek va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun)

Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Orifjon Madvaliyev*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 23.05.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 13,02. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,49.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.